Fizikadan Uzoqov to`plami boyicha nazariy darslik

FIZIKA

(*qisqacha ma'lumotlar*)

Akademik litsey , kasb-hunar kollejlari, maktab o'quvchilari va oliy o'quv yurtiga kiruvchi abituriyentlar uchun mo'ljallangan.

NARZULLOYEV ANVAR

Abituriyent-2014-2017

Talaba-2017…

1. Moddiy nuqta. Ko'chish.

Fizika — materiyaning tuzilishi va uning xilma-xil o'zgarishlarini o'rgatadi.
Materiya — bu inson ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan, ko'rinadigan va ko'rinmaydigan butun borliqdir. Materiyaga
- funksiyalar (sin, cos)
- psixologik tushunchalar (rijdon, his-tuyg'u)

kirmaydi.

Fizika 5 ta katta bo'limdan iborat
- Mexanika
- Molekulyar fizika
- Elektr
- Optika
- Atom va yadro fizikasi.

Mexanikaning asosiy masalasi **jismning ixtiyoriy vaqt momentidagi** vaziyatini aniqlashdan iborat.
Mexanika 3 bo'limdan iborat.
- Kinematika
- Dinamika
- Statika

Kinematika — jismning harakatini, shu harakatni yuzaga keltiruvchi sabablarsiz o'rgatadi.

Dinamika — jismning harakat sabablarini o'rgatadi.

Statika — kuch ta'sirida jismning muvozanatda bo'lish shartlarini o'rgatadi.

Mexanik harakat — vaqt o'tishi bilan bir jismning boshqa jismga nisbatan vaziyatining o'zgarishiga aytiladi.

Trayektoriya — jismning harakati davomida qoldirgan izga aytiladi.

Yo'l — trayektoriya uzunligiga aytiladi.

S – yo'l [m]

Ko'chish — jismning boshlang'ich vaziyati bilan oxirgi vaziyatini tutashtiruvchi vektor.

! Yo'l hech qachon 0 ga teng emas $S \neq 0$
Ko'chish nolga teng bo'lishi m-n $\vec{S} = 0$.

Skalyar kattaliklar — faqat son qiymatiga ega bo'lgan kattaliklarga aytiladi.

S – yo'l [m]
t – vaqt [S]
I – tok kuchi [A]
m – massa [kg]
V – hajm [m^3]
P – bosim [Pa]
A – ish [J]
S – yuza

EYK. Zaryad.

Vektor kattaliklar — ham son qiymatiga, ham yo'nalishga ega bo'lgan kattaliklarga aytiladi.

$\vec{S}$ – ko'chish [m]
$\vec{v}$ – tezlik [m/s]
$\vec{a}$ – tezlanish [m/s^2]
$\vec{F}$ – kuch [N]
$\vec{j}$ – tok zichligi [A/m^2]
$\vec{p}$ – impuls [kg · m/s]
$\vec{E}$ – maydon kuchlanganligi
$\vec{q}$ – tok zichligi

Sanoq sistemasi — sanoq jismi va unga bog'langan koordinatalar sistemasi hamda vaqtni o'lchaydigan asbobdan iborat sistemasiga aytiladi.

1.

Sanoq sistemasi 2 xil bo'ladi

- Inersial sanoq sistemasi
- Noinersial sanoq sistemasi

Inersial sanoq sistemasi deb, tinch turgan yoki to'g'ri chiziqli tekis harakat qila yotgan sanoq sistemasiga aytiladi.

Shu sanoq sistemada Nyuton qonunlari bajariladi.

Noinersial sanoq sistemasi deb, tezlanish bilan harakatlanayotgan sanoq sistemasiga aytiladi.



$A(x_0 y_0)$ $S_x = x - x_0$

$B(x; y)$ $S_y = y - y_0$

$$\vec{S} = \sqrt{S_x^2 + S_y^2}$$

$x_0; y_0$ – boshlang'ich koordinata

x, y – oxirgi koordinata

Moddiy nuqta — ma'lum sharoitda o'lchamlarini e'tiborga olmasa ham, bo'ladigan jismga aytiladi.

To'g'ri chiziqli tekis harakat. Tezlik.

Harakat 3 turga bo'linadi:

- to'g'ri chiziqli tekis harakat
- to'g'ri chiziqli notekis harakat
- Egri chiziqli harakat.

To'g'ri chiziqli tekis harakat — hech, qanday tezlanishga ega bo'lmagan harakatga aytiladi, ya'ni $a = 0$

$\vartheta = const.$

Tezlik — vaqt birligi ichida bosib o'tilgan masofaga aytiladi.

$$\vartheta = \frac{S}{t}$$

ϑ — tezlik [m/s]
S — masofa [m]
t — vaqt [s]

$$\vartheta \frac{km}{h} = \frac{\vartheta}{3,6} \frac{m}{s}$$



ϑ_y — tezlikni vertikal tashkil etuvchi

ϑ_x — tezlikni gorizontal tashkil etuvchi

$$\vartheta_y = \vartheta \sin\alpha$$
$$\vartheta_x = \vartheta \cos\alpha$$
$$tg\alpha = \frac{\vartheta_y}{\vartheta_x} = \vartheta$$

$$\vec{S} = \vec{\vartheta} t$$

$$S_x = \vartheta_x t \qquad S_x = x - x_0$$
$$\vartheta_x t = x - x_0$$

$$x = x_0 + \vartheta_x t$$
$$y = y_0 + \vartheta_y t$$

to'g'ri chiziqli tekis harakat tenglamasi

Masalan, $x_1 = 4 + 2t$
$x_2 = t + 7$

- Uchrashishi uchun $x_1 = x_2$

$4 + 2t = t + 7$
$t = 3$.

- $t \leq 0$ bo'lsa uchrashmaydi.

Harakatni grafik ravishda tasvirlash

- To'g'ri chiziqli tekis harakat grafigi quyidagicha bo'ladi



! Harakat grafigidagi chiziqning vaqt o'qi bilan hosil qilgan burchagi qanchalik katta bo'lsa, tezlik shuncha katta bo'ladi.

Masalan,

$x_0 = -8$

$x = 20$

$t = 4$

$x = x_0 + vt$

$v_x = \frac{x - x_0}{t} = \frac{20+8}{4} = 7.$

$x = -8 + 7t.$



S = yo'l $\vec{S}$ = ko'chish

$t = 1$ $S = 2$ $\vec{S} = 2$

$t = (3-1) = 2$ to'xtaydi

5 sekund harakat qiladi

$7 - 2 = 5$ s.

$t = 3$ $S = 2$ $\vec{S} = 2$

$t = 4$ $S = 4$ $\vec{S} = 0$

$t = 5$ $S = 9$ $\vec{S} = -5$

$t = 6$ $S = 14$ $\vec{S} = 0$

$t = 7$ $S = 15$ $\vec{S} = 3$

• Yol grafigi.



bo'lishi mumkin. $S > 0$

$S < 0$

bo'lmaydi

! Yol grafigidagi vaqt o'qi bilan hosil qilgan burchak tangensi tezlikka tengdir.

$$tg\alpha = v.$$

• Tezlik grafigi.





! Tezlik grafigidagi vaqt o'qi bilan hosil qilgan yuza yo'lga tengdir



$$S = v \cdot t = S_{\square}.$$

Holatlar:

•



$S_1 = 8 \quad S_2 = 15$

$S = \vec{S} = 8 + 15 = 23.$

•



$$\vec{S} = |S_1| - |S_4|$$

$$S = |S_1| + |S_4|$$

$S = |12 + 10| + |-33 - 18| = 73$

$\vec{S} = |22| - |51| = -29$

Harakat nisbiyligi

Hech qanday harakat absolyut emas nisbiydir, Tinchlik ham nisbiydir.

I. Harakati bir-biriga bog'liq bo'lmagan — ikkita jismning nisbiy tezliklari quyidagicha topiladi:

- 

$\alpha = 0°$ (qo'shib ketyapti, bir xil yo'nalish)

$\vartheta_n = |\vartheta_1 - \vartheta_2|$

$V_1 > \vartheta_2$

ϑ_n — ularning yerga nisbatan tezligi. Natijaviy tezlik.

- 

(bir-biriga tomon, qarama-qarshi yo'nalish. $\alpha = 180°$)

$$\vartheta_n = \vartheta_1 + \vartheta_2$$

$$\vartheta_{1;2} = \vartheta_{2;1} = \vartheta_1 + \vartheta_2$$

- 

(Bir-biriga tik yo'nalish perpendikulyar $\alpha = 90°$)

$$\vartheta_n = \sqrt{\vartheta_1^2 + \vartheta_2^2}$$

$$\vartheta_{1;2} = \vartheta_{2;1} = \sqrt{\vartheta_1^2 + \vartheta_2^2}.$$

- 

(α - burchak ostida)

$$\vartheta_n = \sqrt{\vartheta_1^2 + \vartheta_2^2 + 2\vartheta_1\vartheta_2\cos\alpha}$$

$$\vartheta_{1;2} = \vartheta_{2;1} = \sqrt{\vartheta_1^2 + \vartheta_2^2 - 2\vartheta_1\vartheta_2\cos\alpha}.$$

II. Harakati bir-biriga bog'liq bo'lgan

ikkita jismning nisbiy tezligi quyidagicha topiladi. (oqim, qayiq, suzuvchi)



$\vartheta_n = \vartheta_q + \vartheta_o$

qayiqning yerga (qirg'oqqa) nisbatan tezligi.

(Bir xil yo'nalishda; oqim bo'ylab)

$\vartheta_{q;o} = \vartheta_{o;q} = \vartheta_q - \vartheta_o$ bir-biriga nisbatan tezligi



(qarama-qarshi yo'nalishda)

$\vartheta_n = \vartheta_q - \vartheta_o$. [$\vartheta_q > \vartheta_o$ doimo.]

$\vartheta_{q;o} = \vartheta_{o;q} = \vartheta_q + \vartheta_o$



$\vartheta_n = \sqrt{\vartheta_o^2 + \vartheta_q^2}$

$\vartheta_{o;q} = \vartheta_{q;o} = \sqrt{\vartheta_o^2 + \vartheta_q^2}$



$\vartheta_n = \sqrt{\vartheta_1^2 + \vartheta_2^2 + 2\vartheta_1\vartheta_2\cos\alpha}$

$\vartheta_{o;q} = \vartheta_{q;o} = \sqrt{\vartheta_1^2 + \vartheta_1^2 - 2\vartheta_1\vartheta_2\cos\alpha}$

Eng ko'p uchraydigan old qo'shimchalar:

Katta:
- Tera — $T = 10^{12}$
- Giga — $G = 10^9$
- Mega — $M = 10^6$
- Kilo — $k = 10^3$

Ulush:
- Milli — $m = 10^{-3}$
- Mikro — $\mu = 10^{-6}$ (m/k)
- Nano — $n = 10^{-9}$
- Piko — $p = 10^{-12}$

Sekto — 10^{-2} (kerakli qo'shimchalar)
Angestrun — 10^{-10}

O'rtacha va Oniy tezliklar.

Har qanday harakatda o'rtacha tezlik quyidagicha topiladi

$$v_{o'rt} = \frac{S_{um}}{t_{um}}$$ (butun yo'lning butun vaqtga nisbati)

- $S_{um} = S_1 + S_2 + S_3 + \dots + S_n$
- $t_{um} = t_1 + t_2 + t_3 + \dots + t_n$

$$v_{o'rt} = \frac{S_1 + S_2 + \dots + S_n}{t_1 + t_2 + \dots + t_n}$$

$S_1 = v_1 t_1$ $S_2 = v_2 t_2$ $S_n = v_n t_n$

$t_1 = \frac{S_1}{v_1}$ $t_2 = \frac{S_2}{v_2}$ $t_n = \frac{S_n}{v_n}$

- $v_{o'rt} = \frac{2v_1 v_2}{v_1 + v_2}$ agar $S_1 = S_2$ bo'lsa
- $v_{o'rt} = \frac{v_1 + v_2}{2}$ agar $t_1 = t_2$ bo'lsa
- $v_{o'rt} = \frac{S_1 + S_2}{\frac{S_1}{v_1} + \frac{S_2}{v_2}}$ agar t yo'q bo'lsa bo'ladi
- $v_{o'rt} = \frac{v_1 t_1 + v_2 t_2}{t_1 + t_2}$ agar S yo'q bo'lsa bo'ladi

Oniy (lahzaviy) tezlik deb, jismning ixtiyoriy eng kichik vaqt momentidagi tezligiga aytiladi.

yoki trayektoriyaning ma'lum nuqtasi-dagi tezlikka oniy tezlik deyiladi.

Spidometr oniy tezlikni ko'rsatadi



$tg\alpha = \vartheta$



$tg\alpha = \vartheta$.

Asosiy birliklar

	Kattalik nomi	Belgisi	Birligi nomi	Qisqa chd	Izoh
1	Uzunlik	s, l	metr	m	Mexanika
2	Massa	m	kilogramm	kg	Mexanika
3	Vaqt	t	sekund	S	Mexanika
4	Temperatura	T	Kelvin	K	Molek. fizika
5	Modda miqdori	ν	mol	mol	Molek. fizika
6	Tok kuchi	I	amper	A	Elektr
7	Yorug'lik	J	kandela	Kd	optika

Qo'shimcha

8	Yassi burchak	α (β...)	radian	rad	fizika
9	fazoviy burchak	Ω	Steradian	sr	fizika

Tezlanish. Tekis tezlanuvchan harakat.

Vaqt o'tishi bilan tezlikning o'zgarishiga **tezlanish** deyiladi.

$$\vec{a} = \frac{\Delta \vec{\upsilon}}{\Delta t}$$

$\Delta \vec{\upsilon}$ – tezlikning o'zgarishi
a – tezlanish

$$\Delta \upsilon = \upsilon - \upsilon_0$$
$$\Delta t = t - t_0$$

$$a = \frac{\upsilon - \upsilon_0}{t - t_0} \quad \text{yoki} \quad a = \frac{\upsilon - \upsilon_0}{t}$$

- To'g'ri chiziqli tekis harakat.

$\upsilon = \upsilon_0 \qquad a = 0$

- To'g'ri chiziqli tekis tezlanuvchan harakat.

$\upsilon > \upsilon_0 \qquad a > 0 \qquad +\upsilon - +a \qquad \upsilon\uparrow\ a\uparrow$
$\qquad\qquad\qquad\qquad\quad -\upsilon - -a$

- To'g'ri chiziqli tekis sekinlanuvchan harakat.

$\upsilon < \upsilon_0 \qquad a < 0 \qquad +\upsilon - -a \qquad \upsilon\uparrow\ a\downarrow$
$\qquad\qquad\qquad\qquad\quad -\upsilon - +a \qquad \upsilon\downarrow\ a\uparrow$

$\upsilon = \upsilon_0 + at$ – oniy tezlik yoki oxirgi tezlik

$\upsilon = \upsilon_0 - at$ – qachon to'xtaydi, qachon tezlik o'zgaradi

$t_t = \frac{\upsilon_0}{|a|}$ – to'xtash vaqti ($\upsilon = 0$).

$$\vartheta_x = \vartheta_{0x} + a_x t.$$



Izoh.

1) $\vartheta_1 = \vartheta_{01} + a_1 t$ tezlanuvchan
2) $\vartheta_2 = a_2 t$ tezlanuvchan ($\vartheta = 0$)
3) $\vartheta_3 = -\vartheta_0 + at$
   t_2 gacha sekinlanuvchan
   t_2 dan keyin tezlanuvchan
4) $\vartheta_4 = \vartheta_0 - at$ sekinlanuvchan
5) $\vartheta_5 = -at$ tezlanuvchan
6) $\vartheta_6 = -\vartheta - at$ tezlanuvchan

Tezlik grafigidagi burchak tangensi tezlanishni beradi.

$$\boxed{tg\alpha = a}$$

Misol:



$\vartheta = -4$
$\vartheta_0 = 18$
$t = 7$

$a = \frac{-4-18}{7} = \frac{-22}{7}$ (tezlanish)

$\vartheta_x = 18 - \frac{22}{7} t.$ (tenglamasi)

$S = S_{1\Delta} + S_{2\Delta} = 18 + 10 = 28$ (yo'l)

$\vec{S} = 18 - 10 = 8$ (ko'chish)

$$\boxed{a_1 < a_2 < a_3}$$

$$\alpha_1 < \alpha_2 < \alpha_3.$$



1,6 — tezlanuvchi
2,5 — sekinlanuvchi
3 — t.ch.t tezlanuvchi h.
4 — t.ch.t sekinlanuvchi h.

! Tezlanish grafigidagi vaqt o'tishi bilan chegaralangan yuza tezlikni o'zgarishini beradi.

$$\Delta v = S_{(yuza)}$$

Shpargalka.



tezlik tezlanish yo'l

Tezlanuvchan



Sekinlanuvchan

Misol:



$$\vartheta_1 = \vartheta_0 + a_1 t_1$$

$$\vartheta_2 = \vartheta_1 + a_2 t_2 = \vartheta_0 + a_1 t_1 + a_2 t_2$$

$$\vartheta_3 = \vartheta_2 + a_3 t_3$$

.....

$$\boxed{\vartheta_n = \vartheta_{n-1} + a_n t_n}$$

To'g'ri chiziqli tekis tezlanuvchan harakatda ko'chish.

- Bu harakatda **o'rtacha tezlik** quyidagicha topiladi:

$$\boxed{\vartheta_{o'rt} = \frac{\vartheta + \vartheta_0}{2}}$$

- Agar t_1 va t_2 berilgan bo'lsa, bu vaqt oralig'ida bo'lsa $\vartheta_{o'rt}$ quyidagicha topiladi:

$$\boxed{\vartheta_{o'rt} = \frac{\vartheta_1 + \vartheta_2}{2}}$$

- Butun yo'l davomidagi O'rtacha tezlik

$$\boxed{\vartheta_{o'rt} = \frac{\vartheta_0 + \vartheta_1 + \vartheta_2}{3}}$$

- Bu harakatda **yo'l** quyidagicha topiladi:

$$\boxed{S = \vartheta_{o'rt} \cdot t = \frac{\vartheta + \vartheta_0}{2} \cdot t}$$

• Agar vaqt yo'q bo'lsa yo'l quyidagicha topiladi.

$$t = \frac{v - v_0}{a} \Rightarrow \boxed{S = \frac{v + v_0}{2} \cdot \frac{v - v_0}{a} = \frac{v^2 - v_0^2}{2a}}$$

• Agar vaqt bo'lsa yo'l quyidagicha topiladi.

$$v = v_0 + at \Rightarrow \boxed{S = \frac{v_0 + at + v_0}{2} \cdot t = v_0 t + \frac{at^2}{2}}$$

• Bu harakatda tormoz yo'li quyidagicha topiladi.

$$\boxed{S_T = \frac{v_0 t}{2}} \Rightarrow t_T = \frac{v}{a}$$

$$\boxed{S_T = \frac{v_0^2}{2a}}$$

$$a = \mu g$$

$$g = 10$$



• Tog'ri chiziqli tekis tezlanuvchan harakat tenglamasi.

$$S_x = x - x_0$$

$$S_x = v_{ox} t + \frac{a_x t^2}{2}$$

$$\boxed{X = X_0 + v_{ox} \cdot t + \frac{a_x t^2}{2}}$$



$t_1 = 1$	$S_1 = \lvert AB \rvert$	1-(inchi)	$\Delta S_1 = \lvert AB \rvert$
$t_2 = 2$	$S_2 = \lvert AC \rvert$	2-(inchi)	$\Delta S_2 = \lvert BC \rvert$
$t_3 = 3$	$S_3 = \lvert AD \rvert$	3-(inchi)	$\Delta S_3 = \lvert CD \rvert$
$t_n = n$	$S_n = \lvert AK \rvert$	n-(inchi)	$\Delta S_n = \lvert DK \rvert$

$$S_n = v_0 t_n + \frac{a t_n^2}{2}$$

$$\Delta S_n = v_0 + \frac{a}{2}(2t_n - 1) \quad \text{(inchi)}$$

• Agar $v_0 = 0$ bölsa 2-formulada (inchi) toqlar jadvali dan foydalanib topish mumkin

$v_0 = 0$ Toqlar (inchi)

Vaqt	1	2	3	4	5	n
toq sonlar	1	3	5	7	9	2n-1
Yo'l	S_1	$3S_1$	$5S_1$	$7S_1$	$9S_1$	$S_1(2n-1)$

• Masalalarda 2 ta jism bir-biridan Δt vaqt intervali bilan harakatlanadi..... deyilsa, quyidagicha topiladi:

$$S_1 = v_0(t+\Delta t) + \frac{a(t+\Delta t)^2}{2}$$

$$S_2 = v_0 t + \frac{a t^2}{2}$$

Egri chiziqli harakatda ko'chish va tezlik.

Jismning harakat trayektoriyasi aylanadan yoki aylana yoyidan iborat bölsa bunday harakatga aylana harakat deyiladi.

Aylanma harakatda chiziqli tezlik va burchak tezlik tushunchalari bor.

Chiziqli tezlik deb vaqt birligi ichida bosib o'tilgan yoy uzunligiga aytiladi.



$$v = \frac{l}{t}$$

Birligi $[\frac{m}{s}]$.

$l = \overset{\smile}{AB}$

- Aylana bo'ylab tekis harakatda chiziqli tezlik moduli (qiymati) o'zgarmas bo'lib, yo'nalishi uzluksiz o'zgarib turadi va harakat vaqti trayektoriyaga o'tkazilgan urinma bo'ylab yo'nalgan.



- Egri chiziqli notekis harakatda chiziqli tezlik moduli va yo'nalishi uzluksiz o'zgarib turadi faqatgina oniy tezlik moduli o'zgarmaydi, yo'nalishi urinma bo'ladi.



$$v_C = 2v_0$$

$$v_A = \sqrt{2} \cdot v_0 = v_D$$

$$v_B = 0$$

$$v_K = \sqrt{v_1^2 + v_2^2 + 2v^2 \cos\alpha}$$

• **Burchak tezlik** deb vaqt birligi ichida radius vektorining burulish burchagiga aytiladi. $[\omega]$



$$\omega = \frac{\varphi}{t}$$

$$\vartheta = \omega R$$

Aylana bo'ylab tekis harakatdagi tezlanishi.

Tezlanish 2 xil bo'ladi:

• a_T — tangensial tezlanish

• a_n — normal tezlanish

$$a_{to'la} = \sqrt{a_T^2 + a_n^2}$$

1) ⟶ gor $\quad a_n = 0 \quad a_T \neq 0 \quad a_T = \frac{\vartheta - \vartheta_0}{t}$

2)  $\quad a_T = 0 \quad a_n \neq 0$

• Aylana bo'ylab tekis harakatda tezlanish moduli o'zgarmas bo'lib yo'nalishi uzluksiz ~~bo'ladi~~ o'zgarib turadigan va hamma vaqt radius bo'ylab markazga tomon yo'nalgan. Shuning uchun bu tezlanishga **markazga intilma tezlanish** deyiladi.



$\vec{\vartheta} \perp \vec{a}$

$\alpha = 90° = \frac{\pi}{2}$

a hamma nuqtada bir xil bo'ladi $= \frac{\vartheta^2}{R}$

$$a_n = \frac{\vartheta^2}{R}$$

markazga intilma tezlanish formulasi

$$a_n = \omega^2 \cdot R$$

$$a_n = \omega \cdot \vartheta$$

Burchak tezlik bilan ifodalangan formula

$a_n \Rightarrow a_{M.I.}$

Aylanish davri va chastotasi.

Aylanish davri yoki **davr** deb bir marta to'liq aylanish uchun ketgan vaqtga aytiladi.

$$T = \frac{t}{N}$$

N — aylanishlar soni
t — vaqt
T — davr.

Aylanish chastotasi yoki **chastotasi** deb vaqt birligi ichidagi aylanishlar soniga aytiladi.

$$\nu = \frac{N}{t}$$

ν — chastota $\left[\frac{dvl}{s}\right]\left[\frac{T}{s}\right][Hz]$

Davr $T = \frac{1}{\nu}$ chastota $\nu = \frac{1}{T}$

- Aylana bo'ylab harakatda chiziqli funksiya.

$l = 2\pi R$ $t = T$ $\vartheta = \frac{2\pi R}{T}$ $\vartheta = 2\pi R \cdot \nu$

$$\vartheta = \frac{2\pi R}{T} \cdot \cos\varphi$$

$\omega = \frac{2\pi}{T}$ $\omega = 2\pi\nu$

$$a = \frac{\vartheta^2}{R} = \frac{4\pi^2 R}{T^2} \qquad a = 4\pi^2 R \nu^2$$

- Endi ikkita yoki bir nechta o'qqa mahkamlangan aylanuvchi sistemalarning harakatini qaraymiz.



Zanjizli



fritsion

$\vartheta_1 = \vartheta_2 \quad \omega_1 \neq \omega_2 \quad \vartheta = \omega R$

$\omega_1 R_1 = \omega_2 R_2 \quad \omega = \frac{\vartheta}{R} \quad \omega \sim \frac{1}{R}$

$R_1 < R_2$

$\omega_1 > \omega_2$



Tishli.

$\omega_1 N_1 = \omega_2 N_2$

$\vartheta_1 N_1 = \vartheta_2 N_2$

$R_1 < R_2$

$a_1 > a_2$

- Bitta o'qqa yoki umumiy o'qqa mahkamlangan aylanuvchi sistema



$\omega_1 = \omega_2 \quad \vartheta_1 \neq \vartheta_2$

$\vartheta = \omega R$

$R_1 < R_2 \quad \vartheta \sim R$

$\vartheta_1 < \vartheta_2 \quad a = \omega^2 R \quad a \sim R$

$R_1 < R_2 \quad a_1 < a_2$

Dinamika asoslari.

Nyutonning birinchi va ikkinchi qonunlari.

Galeleyning nisbiylik prinspi 2ta postulot (aksioma) ga asoslanadi:

1. Enersial sanoq sistemasi tinch yoki boro-latda ekanligini sistemaning ichida hech qon-day mexanik tajribalar biban aniqlab bolmay-di.

2. Barcha inersial sanoq sistemalarida harakat qonunlari bir xil.

Massa deb, jismning inertligini harakter-lovchi kattalikka aytiladi.

m – massa. [kg]

! Massasi katta jism inertroq hisoblanadi.

[Inertlik – jismning tinch holatini saqlashi]

! Inert massa va gravitatsion massa tengdir.

Platina va iridiy qotishmasidan tayyorlangan.

1960-yil. Serr shahrida saqlanadi Massa etaloni.

Hajm deb, jismning uchta o'lchamining ko'paytmasiga aytiladi.

$$V = a \cdot b \cdot h$$

$$V = S \cdot h$$

V – hajm $[m^3]$ birligi.

$1\ mm^3 = 10^{-9}\ m^3$
$1\ sm^3 = 10^{-6}\ m^3$
$1\ dm^3 = 10^{-3}\ m^3$
$1\ l = 10^{-3}\ m^3$
$1\ km^3 = 10^{6}\ m^3$

Zichlik deb, hajm birligidagi massaga aytiladi.

$$\rho = \frac{m}{V}$$

$$[\frac{kg}{m^3}] \qquad \rho\ \frac{g}{sm^3} = \rho \cdot 10^3\ \frac{kg}{m^3}.$$

Suyuqlik zichligi **aeriometr** bilan o'lchanadi.

Kuch – jismlarning o'zaro ta'sirini miqdor jihatidan hamda yo'nalish jihatidan harakterlovchi fizik kattalik.

F – kuch $[N]$

- Kuch ta'sirida jism shaklini o'zgartiradi yoki tezlanish oladi. Ikkalasi bo'lishi ham mumkin

Kuch dinamometr bilan o'lchanadi.

Teng ta'sir etuvchi kuch yoki **Natijaviy kuch** deb jismga qo'yilgan kuchlarning geometrik yig'indisiga aytiladi.

2 ta kuchning teng ta'sir etuvchisi quyidagi topiladi:

- 

$$F_n = F_1 + F_2$$

- 

$$F_n = |F_1 - F_2|$$

- 

$$F_n = \sqrt{F_1 + F_2}$$

- 

$$F_n = \sqrt{F_1^2 + F_2^2 + 2F_1F_2\cos\alpha}$$

Bir necha (2dan ko'p) teng ta'sir etuvchisi quyidagicha topiladi.

$$F_n = \sqrt{F_x^2 + F_y^2}$$

$$F_x = F_{1x} + F_{2x} + F_{3x} + \dots F_{nx}$$

$$F_y = F_{1y} + F_{2y} + F_{3y} + \dots F_{ny}$$

Masalan:



$F_{1x} = 0$
$F_{2x} = F_2$
$F_{3x} = F_3 \cos\alpha$
$F_{4x} = -F_x \cos\beta$

$F_{1y} = F_1$
$F_{2y} = 0$
$F_{3y} = -F_3 \sin\alpha$
$F_{4y} = -F \sin\beta.$

Keyin F_x lar va F_y lar qo'shilib formulaga qo'yiladi.

! Jism tinch turganda teng ta'sir etuvchi kuch nolga tengdir.

Nyutonning birinchi qonuni (Energiya qonuni)

Shunday sanoq sistemalari borki bunda jismga kuch ta'sir etmasa yoki ta'sir etayotgan kuchlarning geometrik yig'indisi 0 ga teng bo'lsa bu jism tinch turadi yoki to'g'ri chiziqli tekis harakat qiladi.

$$\vec{F} = 0 \quad \sum \vec{F} = 0 \quad \vartheta = const$$

$$\sum_{i=1}^{n} \vec{F}_i = \vec{F}_1 + \vec{F}_2 + \dots + \vec{F}_n.$$

Nyutonning ikkinchi qonuni (O'zaro ta'sir qonuni)

Jismning oladigan tezlanishi kuchga to'g'ri proporsional, massaga teskari proporsional! Yoinda fizhi

kuch yo'nalishida bo'ladi:

$$\vec{a} = \frac{\vec{F_n}}{m}$$

a ↑ F ↑



Aylanma harakatda **a** markazga intiladi

F ↑

- Tezlik grafigi berilgan bo'lsa quyidagilarni aniqlash mumkin



① $F_{to'rtishish} = F_{ishqalanish}$ $F=0$ $a=0$
to'g'ri chiziqli tekis h.

② $F_T > F_{ish}$ $F=const$ $a>0$
to'g'ri. ch. t. tezlanuvchan h.

③ $F_T < F_{ish}$ $F=const$ $a<0$
t. ch. t. sekinlanuvchan h.

- Jismlar o'zaro ta'sirlashsa kuchlar tenglashadi,

$$F_1 = F_2$$
$$m_1 a_1 = m_2 a_2$$
$$\frac{m_1 \vartheta_1}{t_1} = \frac{m_2 \vartheta_2}{t}$$

$$\boxed{m_1 \vartheta_1 = m_2 \vartheta_2}$$

$$a = \frac{F}{m_1 + m_2}$$

$$F_1 = m_1 a \qquad F_2 = m_2 a$$

$$F = F_1 + F_2$$



$$a = \frac{F}{\Sigma m} = \frac{F}{m_1 + m_2 + m_3 + m_4 + m_5}$$

$$T_{4;5} = m_5 a$$

$$T_{3;4} = (m_4 + m_5) a$$

$$T_{2;3} = (m_3 + m_4 + m_5) a$$

$$T_{1;2} = (m_2 + m_3 + m_4 + m_5) a$$

$$T = (m_1 + m_2 + m_3 + m_4 + m_5) a$$

Agar jism aylana bo'ylab tekis aylansa markazga intilma kuch yuzaga keladi. Agar aylana bo'ylab tezlanish bilan harakat lansa markazdan qochma kuch yuzaga keladi

$$F_{m.i} = m \cdot a = \frac{m\vartheta^2}{R} = m\omega^2 R = m\omega\vartheta$$

$$F_{m.q} = ma = \frac{m\vartheta^2}{R} = m\omega^2 R = m\omega\vartheta$$

- Markazga intilma kuch.

- Markazdan qochma kuch



$\omega > 0$
(tezlanuvchan)
(tezlanish yo'nalishi bilan bir xil bo'ladi)



$\omega < 0$
(sekinlanuvchan).
(qarama-qarshi yo'nalishda bo'ladi).

Og'ish burchagi.



α — gorizontga og'ish burchagi.
β — vertikalga og'ish burchagi.

$$tg\alpha = \frac{g}{a}$$

$$tg\beta = \frac{a}{g}$$

$$a = \frac{\vartheta^2}{R}$$

$$g = 10$$

Oltin qoidalar:

1-qoida. Agar jism tinch turgan bo'lsa jismga bir xil yo'nalishda ta'sir qiluvchi kuchlarning yig'indisi qarama-qarshi yo'nalishda ta'sir qiluvchi kuchlarning yig'indisiga tenglashtiriladi.
(Tekis ke lo yotgan bo'lsa)

$$F_1 + F_3 + F_T = F_2 + F_4$$

2-qoida Agar jism (a) tezlanish bilan harakatlanayotgan bo'lsa (a) ga nisbatan tenglama tuzamiz. (a)ning yönalishidagi kuchlarni musbat, (a) ga qarama-qarshi yönalishdagi kuchlar manfiy bo'ladi.



$$ma = F_1 + F_2 + F_T - F_4 - F_3$$

Reaksiya (normal bosim) kuchi.



mg – og'irlik kuchi.
N – reaksiya (normal bosim) kuchi.

Misol.



y: M uchun $N = Mg$

x: M uchun $Ma = T -$

y: m chun $ma = mg$

$$a = \frac{mg - F_{ish}}{M + m}$$

$F_{ish} = 0$ bolsa

$F_{ish} = \mu$

$$a = \frac{mg}{M + m}$$

$F_{ish} = M$

bolodi.

Nyutonning Uchinchi qonuni.

Nyutonning uchinchi qonuni (ta'sir yoki aks ta'sir qonuni)

Bir jism ikkinchi jismga qandaydir kuch bilan ta'sir qilsa, ikkinchi jism ham birinchi jismga xuddi shunday lekin qarama-qarshi kuch bilan ta'sir qiladi.

$$\vec{F_1} = -\vec{F_2}$$

- Ikki xil kuch tortishib tursa ($v = 0$, tinch) dinamometr kichkina kuchni ko'rsatadi.

  Agar kuchlar birxil bolsa bittasini ko'rsatadi.

- Sudrab ketsa, harakatda bolsa ayirmani ko'rsatadi. Kuchlar birxil bolsa 0 ni ko'rsatadi.

Elastiklik kuchi.

Jism diformatsiyalanganda yuzaga kelgan kuchga **elastiklik kuchi** deyiladi.

Diformatsiya deb jismning shakli yoki hajmining o'zgarishiga aytiladi.

Diformatsiya 2 xil bo'ladi

- Elastik diformatsiya
- Plastik diformatsiya.

Diformatsiya 5 turga bo'linadi

- Cho'zilish diformatsiyasi
- Siqilish diformatsiyasi
- Siljish diformatsiyasi
- Egilish diformatsiyasi
- Buralish diformatsiyasi

Elastiklik kuchi Guk qonuni bilan topiladi:

$$F_{el} = k \cdot \Delta l.$$

$$(F_{el})_x = -k \cdot \Delta l \quad (x \text{ o'qdagi proeksiyasi})$$

- (-) ishorasi elastiklik kuchi ta'sir etayotgan kuchga qarama-qarshi yo'nalishdaligi bildiradi.

k – bikirlik $\left[\frac{N}{m}\right]$.
Δl – absolyut uzayish $[m]$.

$$k = \frac{ES}{l_0}$$

E – yung moduli (elastiklik moduli) $[Pa]$.
S – yuza (ko'ndalang kesim yuzasi).

$$F_{el} = \frac{ES}{l_0} \cdot \Delta l$$

$$\Delta l = l - l_0$$

$$F_{el} = \frac{ES}{l_0} \cdot (l - l_0)$$



$$F = k \cdot \Delta l$$

$$k = \frac{F}{\Delta l} \qquad tg\alpha = \frac{F}{\Delta l}$$

$$\boxed{k = tg\alpha}$$

$$K = \frac{ES}{l_0}$$

$$\boxed{K \sim S} \qquad \boxed{K \sim \frac{1}{l_0}}$$

• Agar purjinaning bikirligi k ga teng bolso purjina yarmining bikirligi 2 barobar kattaboladi

$$\boxed{\varepsilon = \frac{\Delta l}{l_0} \cdot 100\%}$$

ε – nisbiy uzayish (ebsolon).

Prujinalarni ketma-ket ulash.



$$\boxed{\frac{1}{K_{k.k}} = \frac{1}{K_1} + \frac{1}{K_2} + \frac{1}{K_3} + \dots + \frac{1}{K_n}}$$

• Agar k lar teng bolsa unda quyidagicha boladi.

$$K_1 = K_2 = K_3 = \dots = K_n = K_0$$

$$\boxed{K_{k.k} = \frac{K_0}{n}}$$

Prujinalarni parallel (yonma-yon) ulash



$$K_{par} = K_1 + K_2 + K_3 + ... + K_n$$

- Agar k lar teng bo'lsa unda quyidagicha bo'ladi.

$$K_1 = K_2 = K_3 = ... = K_n = K_0$$

$$K_{par} = n \cdot k_0$$

- Parallel va Ketma-ket ulashda bog'lanish.

$$K_{par} = n^2 \cdot K_{k.k}$$

Butun olam tortishish kuchi.

Butun olam tortishish qonuni (Nyutonning tortinchi qonuni)

Massalari m_1 va m_2 bo'lgan jismlar o'zaro massalarining ko'paytmasiga to'g'ri proporsional ular orasidagi masofaning kvadratiga teskari proporsional kuch bilan tortishadi.

• Jismlar orasidagi tortishish kuchiga gravitatsiya kuchi deyiladi.



$$F_1 = F_2 = F_{gr} = G \cdot \frac{m_1 \cdot m_2}{r^2}$$

G, γ — gravitatsiya doimiysi. [Kavendish]

$$G = \gamma = 6{,}67 \cdot 10^{-11} \frac{N \cdot m^2}{kg^2}$$

Og'irlik kuchi.

Og'irlik kuchi — jismning yerga tortadigan kuchidir.

$$F = m \cdot g \qquad P = m \cdot g$$

• Yer sirtida turgan jismni yer quyidagi kuch bilan tortib turadi.



$M_y = 6{,}\cdot 10^{24}$ kg (yer massasi)
$R_y = 64 \cdot 10^5$ m (yer radiusi)

$$F_y = \gamma \cdot \frac{M_y \cdot m}{R_y^2}$$

$F = mg$ $\quad F = \gamma \cdot \frac{M_y \cdot m}{R_y^2}$

$$mg = \gamma \cdot \frac{M_y \cdot m}{R_y^2}$$

$g_y = 9{,}8$ m/s² yer uchun

$g_{oy} = 1{,}6$ m/s² oy uchun

$g_q = 270$ m/s² quyosh uchun.

Yer



$R_{ekv} = 6378\ km$
$R_{qutb} = 6356\ km.$

$$g \sim \frac{1}{R^2}$$

$R_{ekv} > R_{o'r.k} > R_{qutb}$

$g_{ekv} < g_{o'r.k} < g_{qutb}$

$9,78 < 9,8 < 9,82\ m/s^2$

$P_{ekv} < P_{o'r.k} < P_{qutb}$

- Agar jism yer sirtidan h balandlikda turgan jismni yer quyidagi kuch bilan tortib turadi.



$$F_h = \gamma \cdot \frac{M_y \cdot m}{(R_y + h)^2}$$

$$g_h = \gamma \cdot \frac{M_y}{(R_y + h)^2}$$

- Yer sirtidan qanday balandlikda tortishish kuchi yer sirtidagidan n marta kam bo'ladi.

$$\frac{F_h}{F_y} = \frac{1}{n}$$

$$F_h \cdot n = F_y$$

$$\gamma \cdot \frac{M_y \cdot m}{R_y^2} = n \cdot \gamma \cdot \frac{M_y \cdot m}{(R_y + h)^2}$$

$$(R_y + h)^2 = n \cdot R_y^2$$

$$\sqrt{n} \cdot R_y = R_y + h$$

$$h = R_y \cdot (\sqrt{n} - 1)$$

Vazn. Vaznsizlik.

Og'irlik kuchi ta'sirida jismning tayanchga yoki osmaga bo'lgan ta'sir kuchiga **vazn (og'irlik)** deyiladi.

- Og'irlik kuchi jismga tushadi. Og'irlik tayanchga yoki osmaga tushadi.



$F_{og} = mg$



$P = mg$

- Agar jism faqat og'irlik kuchi ta'sirida harakatlansa u **vaznsiz** bo'ladi. $(F=0)$
- Yer o'z o'qi atrofida 17-18 marta tezroq aylansa ekvatordagi nuqtalar vaznsiz harakatda bo'ladi.

Tezlanish bilan harakatlanayotgan jismning vazni.

- Agar jism pastga yoki yuqoriga tekis $(a=0)$ harakat qilsa uning og'irligi o'zgarmaydi va quyidagiga teng

$$F_o = mg$$

Bunda $a = 0$
$\vartheta = const$
tekis harakat

• Agar jism yuqoriga tezlanish bilan harakat qilsa umumiy og'irligi ortadi.

$$F_1 = m(g+a)$$

Botiq sirtda

$$a = \frac{\vartheta^2}{R} \qquad F_1 = m\left(g + \frac{\vartheta^2}{R}\right)$$

Masala: Arqon ko'pi bilan 10 kg lik yukni ko'tara oladi. Shu arqon bilan qayday massali jismni 3g tezlanish bilan ko'tarish mumkin.

$$F = m_1 g \qquad F = m_2(g+a)$$
$$m_1 g = m_2(g+3g)$$
$$m_1 g = m_2 4g$$
$$m_2 = \frac{m_1}{4} = \frac{10}{4} = 2{,}5\,kg$$

• Jismning yuqoriga harakatdagi (tezlanish bilan) og'irligining, tinch holatdagi og'irligiga nisbatiga **yuklama** deyiladi.

$$\frac{F_1}{F_o} = n$$



O'lik sirtmoq, o'lim sirtmoqi

$$n_1 = \frac{m(g+a)}{mg} = \frac{g+a}{g}$$

! Pastan tepaga

$$n_2 = \frac{a-g}{g} \quad (a > g)$$

! yuqori nuqta, tepadan pastga

• Agar jism pastdan tezlanish bilan harakat qilsa uning og'irligi kamayadi.

$$F_t = m(g-a)$$



qavariq sirtda (ko'prik)

$$a = \frac{v^2}{R} \qquad F_t = m\left(g - \frac{v^2}{R}\right)$$

• Jismning og'irligi yo'qoladigan harakatga **vaznsizlik** deyiladi. ($F=0$)

Jismning og'irlik kuchi ta'siridagi vertikal harakati.

• Agar jism yuqoriga tik (vertikal) otilsa, uning harakati to'g'ri chiziqli tekis sekinlanuvchan harakat qiladi.

$$h_t = v_0 t - \frac{gt^2}{2}$$

$$h_t = \frac{v^2 - v_0^2}{-2g}$$

$$h_{max} = \frac{v_0^2}{2g}$$

$$t_1 = \frac{v_0}{g}$$ Ko'tarilish vaqti.

$$v_1 = v - gt$$ Ko'tarilish tezligi.

- Agar jism pastga otilsa, harakat to'g'ri chiziqli tekis tezlanuvchan bo'ladi.

$$h_1 = v_0 t + \frac{gt^2}{2}$$

$$h_1 = \frac{v^2 - v_0^2}{2g}$$

$$v_1 = v_0 + gt$$ Tushish tezligi

$$t_1 = \sqrt{\frac{2h_{max}}{g}}$$ Tushish vaqti

- Hamma vaqt ko'tarilish va tushish vaqti teng bo'ladi.

$$t_1 = t_1$$

$$t = t_1 + t_1 = 2t_1 = 2t_1$$

$$t_1 = \frac{t}{2}$$

$$h_{max} = \frac{gt_1^2}{2}$$

$$h_{max} = \frac{gt^2}{8}$$ - Umumiy (ko'tarilish va tushish uchun)

$v_2 = gt_2 - v_0$

$v_1 = v_0 - gt_1$

• Jism qanday tezlik bilan yuqoriga otilsa, xuddi shunday tezlik bilan qaytib tushadi.



$$\Delta h_t = v_0 + \frac{g}{2}(2t-1)$$

Inchi:: $v_0 = 0$, erkin tushish, bosh.tezliksiz

$$\Delta h_t = \frac{g}{2}(2t-1) = 5(2t-1)$$

$$\Delta h_t = v_0 - \frac{g}{2}(2t-1)$$

Masala. Jism 180 m balandlikdan erkin tushyapti, oxirgi sekundda necha metr yo'l bosadi.

$h = v_0 t + \frac{gt^2}{2}$ $\quad h = 5 \cdot (12-1) = 55$ m.

$v_0 = 0$

$h = \frac{gt^2}{2}$

$180 = \frac{10 \cdot t^2}{2}$

$t = 6$.

• Agar ikkita jism biror vaqt intervali bilan yuqoriga tik otilsa ularning uchrashish vaqtlari quyidagicha topiladi:

$$h_1 = v_0 t_1 - \frac{g t_1^2}{2}$$

$$h_2 = v_0 t_2 - \frac{g t_2^2}{2}$$

$$h_1 = h_2 \qquad t_1 = t_2 + \Delta t$$

$$v_0(t_2+\Delta t) - \frac{g}{2}(t_2+\Delta t)^2 = v_0 t_2 - \frac{g t_2^2}{2}$$

$$\boxed{t_2 = \frac{v_0}{g} - \frac{\Delta t}{2}} \qquad \boxed{t_1 = \frac{v_0}{g} + \frac{\Delta t}{2}}$$

Masala: 2 sekund vaqt intervali 2 tomchi uzuldi. ikkinchisi uzulganidan qancha vaqt o'tgach ular orasidagi masofa 45 m bo'ladi.

$$h_1 = h_2 + 45$$

$$h_1 = \frac{g t_1^2}{2} \qquad h_2 = \frac{g t_2^2}{2} \qquad t_1 = t_2 + \Delta t$$

$$\Delta t = 2$$

$$\Delta h = h_1 - h_2 \qquad \Delta h = 45.$$

$$\Delta h = \frac{g}{2}(t_2+\Delta t)^2 - \frac{g t_2^2}{2}$$

$$45 = 5(t_2+2)^2 - 5t^2$$

$$9 = (t_2+2)^2 - t_2^2$$

$$t_2 = 1{,}25$$

$$t_1 = \Delta t + t_2 = 2 + 1{,}25 = 3{,}25.$$



Jismning og'irlik kuchi ta'sirida harakati: boshlang'ich tezlik gorizontga qiya yo'nalgan

• Agar jism biror h balandlikdan v_0 boshlang'ich tezlik bilan gorizontal otilsa bu jismning harakat trayektoriyasi parabolodan iborat bo'ladi.



$$\vartheta_x = \vartheta_0 = const$$

$$\vartheta_y = gt = \sqrt{2gh}$$

$$\vartheta = \sqrt{\vartheta_x^2 + \vartheta_y^2} = \sqrt{\vartheta_0^2 + (gt)^2} = \sqrt{\vartheta_0^2 + 2gh}$$

$$t = \sqrt{\frac{2h}{g}}$$

$$h = \frac{gt^2}{2} \qquad h = \frac{\vartheta_y^2}{2g}$$

$$S = \vartheta_x t = \vartheta_0 \sqrt{\frac{2h}{g}}$$

$$\sin\alpha = \frac{\vartheta_y}{\vartheta} = \frac{gt}{\vartheta}$$

$$\cos\alpha = \frac{\vartheta_0}{\vartheta}$$

$$tg\alpha = \frac{\vartheta_y}{\vartheta_x} = \frac{gt}{\vartheta_0}$$

$$g = \sqrt{a_\tau^2 + a_n^2}$$

$$\sin\beta = \frac{a_n}{g} \qquad a_n = g\sin\beta$$

$$\cos\beta = \frac{a_\tau}{g} \qquad a_\tau = g\cos\beta$$

$$a_n = g\cdot\frac{v_0}{v} = \frac{gv_0}{\sqrt{v_0^2+(gt)^2}}$$

$$a_\tau = g\cdot\frac{gt}{v} = \frac{g^2t}{v} = \frac{g^2t}{\sqrt{v_0^2+(gt)^2}}$$

$\alpha + \beta = 90°$

$\beta = 90 - \alpha$

$a_n = g\sin(90-\alpha) = g\cos\alpha$

$a_\tau = g\cos(90-\alpha) = g\sin\alpha$

• Agar jism gorizontga nisbatan α burchak ostida v_0 boshlang'ich tezlik bilan otilsa, uning harakat trayektoriyasi paraboladan iborat boladi.



$$v_{ox} = v_0\cos\alpha$$

$$v_{oy} = v_0\sin\alpha$$

$$v_x = v_{min} = v_{ox} = v_0\cos\alpha$$

$$v_y = v_{oy} - gt = v_0\sin\alpha - gt$$

$$v = \sqrt{v_x^2 + v_y^2}$$

$$t_1 = \frac{v_0 \sin\alpha}{g} \qquad t_1 = \sqrt{\frac{2h_m}{g}}$$

$$t_1 = t_1 \qquad t_{um} = 2t_1 = 2t_1$$

$$h_{max} = \frac{v_0^2 \sin^2\alpha}{2g} \qquad h_m = \frac{gt_1^2}{2} \qquad h_m = \frac{gt_{um}^2}{8}$$

$$h = v_0 t \sin\alpha - \frac{gt^2}{2}$$

$$S_{max} = v_x \cdot t_{um} = v_0 \cos\alpha \cdot \frac{2v_0 \sin\alpha}{g}$$

$$S_{max} = \frac{v_0^2 \sin 2\alpha}{g}$$

$$S = v_x \cdot t = v_x \cos\alpha \cdot t$$

$$R_A = \frac{2h_{max}}{tg^2\alpha} = \frac{v_0^2 \cos^2\alpha}{g}$$

$$S_{max} = 4h_{max} \cdot ctg\alpha$$

- 45° burchak ostida otilgan jism eng uzoq joyga borib tushadi
- Bu harakatda jismning to'liq mexanik energiyasi havoning qarshiligi hisobga olinmasa trayektoriyaning barcha nuqtalarida bir xil bo'ladi.
  Agar havoning qarshiligi hisobga olinsa otilish nuqtasida eng katta, tushish nuqtasida eng kichik bo'ladi.

Yerning sun'iy yo'ldoshlari. Birinchi kosmik tezlik.

Yerning tortishish kuchini yenga oladigan tezlikka **birinchi kosmik tezlik** deyiladi.

$$F = \gamma \cdot \frac{M_y m}{R_y^2} = F = ma$$

$$ma = \gamma \cdot \frac{M_y \cdot m}{R_y^2}$$

$$a = \gamma \cdot \frac{M_y}{R_y^2} \qquad a = \frac{\vartheta^2}{R_y}$$

$$\frac{\vartheta^2}{R_y} = \gamma \cdot \frac{M_y}{R_y^2}$$

$$\boxed{\vartheta_I = \sqrt{\gamma \cdot \frac{M_y}{R_y}}}$$

$$g_y = \gamma \cdot \frac{M_y}{R_y^2} \qquad g_y R_y = \gamma \cdot \frac{M_y}{R_y}$$

$$\boxed{\vartheta_I = \sqrt{g_y R_y}} \qquad \vartheta_I = 7900\ ^m/_s \approx 8\ ^{km}/_s$$

$$\boxed{\vartheta_{II} = \sqrt{2} \cdot \vartheta_I}$$ Ikkinchi kosmik tezlik

$\vartheta_{II} = 11{,}2\ ^{km}/_s$ Ikkinchi

$\vartheta_{III} = 16{,}6\ ^{km}/_s$ Uchinchi } Kosmik tezliklar.

• Biror h balandlikdan uchirilgan raketa birinchi kosmik tezligi quyidagicha topiladi.

$$\vartheta_{1h} = \sqrt{\gamma \cdot \frac{M_y}{R_y + h}} = \sqrt{g_y \cdot (R_y + h)}$$

Holatlar:

• $\vartheta < \vartheta_1$

Jismning tezligi birinchi kosmik tezlikdan < bo'lsa, jism ellips yoyi bo'ylab, harakatlanib yerga qaytib tushadi.

• $\vartheta = \vartheta_1$



Jismning tezligi birinchi kosmik tezlikka teng bo'lsa, jism yerga nisbatan aylana bo'ylab harakat qilib, yerning suniy yo'ldoshiga aylandi.

• $\vartheta_1 < \vartheta < \vartheta_{II}$

Jismning tezligi birinchi kosmik tezlikdan katta va ikkinchi kosmik tezlikdan kichik bo'lsa, ellips bo'ylab harakat qiladi, suniy yo'ldoshga aylandi.

• $\vartheta = \vartheta_{II}$

Jismning tezligi ikkinchi kosmik tezlikka teng bo'lsa, yerga nisbatan parabola bo'ylab harakatlanib quyoshning suniy yeldoshiga aylandi.

• $\vartheta = \vartheta_{III}$

Jismning tezligi 3-kosmik tezlikka teng bo'lsa, yerga nisbatan giperbola bo'ylab harakatlanib, galaktikaning sun'iy yo'ldoshiga aylanadi.



Raketa va Planeta tezliklari bir xil yonalishda.

ϑ_∞ - ? $\quad \frac{m\vartheta_\infty^2}{2} = \frac{m\vartheta_2^2}{2} - \frac{m\vartheta_1^2}{2}$

$$\vartheta_\infty^2 = \vartheta_2^2 - \vartheta_1^2$$

Kepler qonuni.

Kepler qonuni — Planetaning aylanish davri kvadratlarining nisbati, katta yarim o'qlari kublarining nisbatiga to'g'ri proporsional.

$$\frac{T_1^2}{T_2^2} \sim \frac{R_1^3}{R_2^3}$$

T — davr
R — radius.

• M=const, bo'lsa

$$\vartheta_1 \sim \frac{1}{\sqrt{R}}$$

• p=const, bo'lsa

$$\vartheta_1 \sim R$$

$$T^2 \sim R^3$$

$$\begin{cases} T \sim \sqrt[2]{R^3} \\ R \sim \sqrt[3]{R^2} \end{cases}$$

Isboti:

$$\vartheta_1 = \sqrt{\gamma \frac{M}{R}}$$

$$\vartheta = \frac{2\pi R}{T}$$

$$\gamma \cdot \frac{M}{R} = \frac{4\pi^2 R^2}{T^2}$$

$$T^2 = \frac{4\pi^2 R^3}{\gamma \cdot M}$$

$$T^2 \sim R^3.$$

Ishqalanish kuchi. Tinchlikdagi ishqalanish.

Sirtlarning notekisligi va molekulalarning tortishishi natijasida yuzaga keladigan kuchga **ishqalanish kuchi** deyiladi.

Ishqalanish kuchi 3 xil bo'ladi:

- Tinchlikdagi ishqalanish kuchi
- Sirpanish ishqalanish kuchi
- Dumalanish ishqalanish kuchi

Tinchlikdagi ishqalanish kuchi ta'sir etayotgan kuchning sirtdagi proeksiyasiga teng

- Tinch turgan jismga **tik (perpendikular)** ravishda kuch ta'sir etsa **ishqalanish kuchi** **nolga (0)** teng bo'ladi

- Jism gorizontal sirtda tinch turganda normal bosim kuchi ortsa ham, kamaysa ham ishqalanish kuchi o'zgarmaydi.



iskanjada ushlab turibdi (bunda F ta'sir etayotgan kuchning aloqasi bo'lmaydi)

$$F_{ish} = mg$$

- Agar jism aylana harakat qilsa ishqalanish kuchi quyidagiga teng

$$F_{ish} = ma = m\omega^2 R \qquad F_{ish} \sim \omega^2$$



$$F_{ISH} = T + F$$

agar $F_{ISH2} > F$ bo'lsa
$T = 0$.

Sirpanish ishqalanish kuchi.

Jism sirpanganda yuzaga keladigan kuchga sirpanish ishqalanish kuchi

- Bu kuch doimo jismning harakatiga qarama-qarshi yo'nalgan bo'ladi.



- Vagon strelka yo'nalishida harakatlanmoqda. Vagon ichida yuk turibdi. Bu yukning ishqalanish kuchi ham strelka yo'nalishida bo'ladi. Chunki vagon oldinga yursa ichidagi yuk ortga harakatlanadi ishqalanish kuchi esa unga qarama-qarshi yo'nalishda bo'ladi. Shunda strelka yo'nalishida bo'ladi.

$$F_{ISH} = \mu \cdot N$$

N – normal bosim kuchi (reaksiya kuchi)
μ – ishqalanish koeffitsiyenti ($\mu < 1$ bo'ladi)

- Ishqalanish kuchi yuzaga bog'liq emas.

$$F_{ISH} \not\sim S$$



$\vartheta = const$ $\quad a = 0$

$F_{ISH} = F_T$ $\quad N = mg$

$$F_{ISH} = \mu \cdot mg \qquad F_T = F_{ISH} = \mu \cdot mg$$

$F_{ISH} = \mu mg$ $\quad F = N$

$F_{ish} = \mu N = \mu \cdot F$

$\mu F = mg$

$F = Kx$ (prujina)

$$\mu Kx = mg$$

- Tormoz kuchining ogirlik kuchiga nisbat ishqalanish koeffitsiyentiga teng

$$\frac{F_{TOR}}{F_{og'}} = \mu$$



$F_1 = \mu mg$

$F_2 = 3\mu mg$

$F_3 = 5\mu mg$

$F_4 = 7\mu mg$

$F_5 = 9\mu mg$

- Gishtlar orasidan sug'urib olishda (qolganlarni qimirlatmaydigan) kerak kuch.

Qiya tekislik

- Qiya tekislikda qiyalig' deganda $\sin\alpha$ tushuniladi



a

$$\sin\alpha = \frac{h}{\ell}$$

α – qiyalik burchagi



$$P_x = mg\sin\alpha$$

$$P_y = mg\cos\alpha$$

Tinch holatda: $F_{ish} = P_x$

$N = P_y$

$$F_{ish} = P_x = mg \cdot \sin\alpha$$

Harakatda: $F = \mu N$

$N = P_y = mg\cos\alpha$

$$F_{ish} = \mu mg\cos\alpha$$

$F_{ish_1} = F_{ish_2}$ (tenglashtirilsa)

$mg\sin\alpha = \mu mg\cos\alpha$

$$\mu = \frac{\sin\alpha}{\cos\alpha} = tg\alpha$$

- Agar $\mu = tg\alpha$ bo'lsa, jism qiya tekislikda tinch bo'lsa, tinch turadi; harakatlanayotgan bo'lsa to'g'ri chiziqli tekis harakat qiladi.
$a = 0 \quad \vartheta = const$

- Agar $\mu > tg\alpha$ bo'lsa, tinch turgan bo'lsa tinch turadi, harakatlanayotgan bo'lsa to'g'ri chiziqli tekis sekinlanuvchan harakat qiladi.
$a < 0$

- Agar $\mu < tg\alpha$ bo'lsa, tinch to'g'ri chiziqli tekis tezlanuvchan harakat qiladi.
$a > 0$

Qiya tekislikning foydali ish koeffitsiyenti.

$$\eta = \frac{\sin\alpha}{\sin\alpha + \mu\cos\alpha}$$

$$\eta = \frac{\sin\alpha}{\sin\alpha + \mu\cos\alpha} = \frac{tg\alpha}{tg\alpha + \mu} = \frac{1}{1 + \mu ctg\alpha}$$

Holatlar:

$$F + F_{ish} = P_x$$

tinch turganda.

F – ushlab turgan kuch



$$F_2 = P_x + F_{ish}$$

yuqoriga tortilsa



$$F_{\downarrow} \pm P_x = F_{ish}.$$

Pastga tortilsa.



$$N = F + P_y$$

tik bosib turilsa

$$F_{ish} = P_x$$

$$\mu \cdot N = P_x$$

$$\mu \cdot (F + P_y) = P_x$$

$$F = \frac{P_x}{\mu} - P_y = \frac{mg\sin\alpha}{\mu} - mg\cos\alpha$$



$$ma_{\downarrow} = P_x - F_{ISH}$$

$$a_{\downarrow} = g(\sin\alpha - \mu\cos\alpha)$$

Pastga va yuqoriga tezlanish b-n tortilsa

$$a_{\uparrow} = g(\sin\alpha + \mu\cos\alpha)$$

$$ma = F - (P_x + F_{ISH})$$

tezlanish bilan biror kuch b-n yuqoriga tortilsa.

$$ma = P_x + F - F_{ISH}$$

tezlanish bilan biror kuch b-n pastga tortilsa.

Ishqalanish kuchi ta'siridagi harakat

- Jismga ishqalanish kuchi ta'sir qilsa u to'g'ri chiziqli tekis sekinlanuvchan harakat qiladi.

$$F_{ISH} = ma = \frac{m\vartheta_0^2}{2S_T}$$

$$S_T = \frac{\vartheta_0^2}{2a} = \frac{\vartheta_0^2}{2\mu g}$$ tormoz yo'li

$$t_T = \frac{\vartheta_0}{a} = \frac{\vartheta_0}{\mu g}$$ tormoz vaqti

• Tortishish kuchi = og'irlik kuchiga nisbati qarshilik koeffitsiyentiga teng

$$\frac{F_T}{F_{og'}} = K$$



$$ma = F_T - F_{ish}$$

$$ma = F_T - \mu mg \quad (:mg)$$

$$\frac{a}{g} = \frac{F_T}{mg} - \mu$$

$$a = g(K - \mu)$$



$a = 0$
$\vartheta = const$

$F_x = F\cos\alpha$

$N + F_y = mg$

$N = mg - F_y = mg - F\sin\alpha$

$$F_\uparrow = \mu(mg - F\sin\alpha)$$

tezlanishsiz

$$F_\downarrow = \mu(mg + F\sin\alpha)$$

Tezlanish bilan: Tepaga

$$ma = F\cos\alpha - \mu(mg - F\sin\alpha)$$

Pastga

$$ma = F\cos\alpha - \mu(mg + F\sin\alpha)$$

Bir necha kuch ta'siridagi harakat

- Agar jism yuqoriga yoki pastga tekis harakat qilsa $a=0$, havoning qarshilik kuchi esa

$$F_{qar} = mg$$

ga teng. Tezligi esa $\vartheta = \frac{h}{t}$ formula bilan aniqlanadi.

- Jism tepaga tezlanish bilan otilsa, qarshilik kuchi:

$$F_1 = m(a-g)$$

- Jism pastga tezlanish bilan otilsa, qarshilik kuchi:

$$F_1 = m(g-a)$$



$$\begin{cases} ma = mg - T \\ Ma = T - P_x - F_{ish} \end{cases}$$

$$a = \frac{mg - P_x - F_{ish}}{m+M}$$



$$\begin{cases} m_1a = T - m_1g \\ m_2a = m_2g - T \end{cases}$$

$$a = \frac{m_2 - m_1}{m_2 + m_1} \cdot g \qquad T = \frac{2m_1m_2}{m_1+m} \cdot g$$

$$F = 2T \qquad \text{doimo} \quad a < g$$



$$\begin{cases} m_1a = m_1g - T \\ m_2a = T_2 - m_2g \\ ma = T_1 - T_2 - F_{ish} \end{cases}$$

$$a = \frac{m_1g - m_2g - F_{ish}}{m_1 + m_2 + m}$$

Masala: Mutlaq silliq stol ustida M massali jism turibdi. Shu jism ustida m massali taxtacha yotibdi. Ular orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti μ ga teng. Agar taxtachaga F kuch ta'sir etsa M massali jism qanday tezlanish oladi.



$F_{ishq} = \mu mg$

agar $F_{ish} \geq F$ $\quad a = \frac{F}{M+m}$

agar $F_{ish} \leq F$ $\quad a = \frac{F_{ish}}{M}$

Arximed kuchi

Arximed kuchi — suyuqlik yoki gazga to'la botirilgan jism oziningo og'irligiga teng hajmli suyuqlik yoki gazni siqib chiqaradi.

$$F_A = \rho_s \cdot g \cdot V_b$$

ρ_s — suyuqlik zichligi.
V_b — botirilgan jism hajmi.

- Arximed kuchi hamma vaqt tepaga

$F_s = mg - F_A$ jismning suyuqlikdagi og'irligi

$m = \rho V$ massa

- $\rho_{suv} = 1000\ Kg/m^3$ $\rho_{vodorod} = 0,09\ Kg/m^3$
- $\rho_{muz} = 900\ Kg/m^3$ $\rho_{havo} = 1,3\ Kg/m^3$
- $\rho_{kerosin} = 800\ Kg/m^3$ $\rho_{granit} = 2700\ Kg/m^3$
- $\rho_{simob} = 136000\ Kg/m^3$. $\rho_{temir} = 7800\ Kg/m^3$
- $\rho_{qo'rg'oshin} = 11300\ kg/m^3$
- $\rho_{alyuminiy} = 2700\ Kg/m^3$

$F_{K.K} = F_A - mg$ Ko'tarilish kuchi.

Jismlarning Suzish Shartlari.

1. $F_{og'} > F_A$, $\rho > \rho_s$ jism to'la cho'kadi.



$V_s = V$
$m > m_s$

2. $F_{og'} = F_A$ $\rho = \rho_s$ jism to'la botib suzadi.

$m_s = m$
$V_s = V$

3. 

$F_{og} < F_A$ $\rho < \rho_s$

jismning ma'lum qismi botib suzadi

$V_s > V$ $m_s = m$

Masala: hajmi $0{,}3 \cdot 10^{-3}$ massasi 2 kg bo'lgan jism suvga tashlansa necha kg suv to'kiladi.

$V = 0{,}3 \cdot 10^{-3}$
$m = 2$ kg

$\rho = \frac{m}{V} = \frac{2}{0{,}3 \cdot 10^{-3}} > \rho_s$

$\rho > \rho_s$. demak V olinadi.

J: m = 0,3 kg suv to'kiladi

agar $\rho > \rho_s$ (V) olinadi

agar $\rho < \rho_s$ (m) olinadi

$$\frac{V_{bot}}{V} = \frac{\rho}{\rho_s}$$

$$\frac{V_{usti}}{V} = \frac{\rho_s - \rho}{\rho_s}$$



$\rho \leq \rho_{suv}$ bo'lsa h-o'zgarmaydi.

$\rho > \rho_{suv}$ bo'lsa h-pasayadi.



agar muz erisa suv sathi pasayadi

h-pasayadi.

Additiv Kattaliklar — to'g'ridan-to'g'ri qo'shib boladigan kattaliklardir. ($m, V, V_{...}$)

Noodditiv Kattaliklar — to'g'ridan-to'g'ri qo'shib bolmaydigan kattaliklardir. ($M, t, T...$)

$$\vec{V} = \vec{V}_1 + \vec{V}_2$$

$$\frac{m}{M} = \frac{m_1}{M_1} + \frac{m_2}{M_2}.$$

Gaz qonunlari

Uchta parametrdan bittasi o'zgarmas bo'lib qolgan 2tasi orasidagi bog'lanishga gaz qonunlari deyiladi.

Boyl - Mariot qonuni.

Agar ma'lum bir massali gazning temperaturasi o'zgarmas bo'lsa bosim bilan hajmning ko'paytmasi ham o'zgarmas bo'ladi.

$T = const$ $\quad PV = const$

$$P_1V_1 = P_2V_2$$

Izotermik jarayon

$$P \sim \frac{1}{V} \quad V \sim \frac{1}{P}$$

• Grafiklarda temperatura o'zgarmas bo'lgan chiziqlarga izotermalar deyiladi.



$T_1 < T_2$





Geey - Lyussak qonuni.

Agar ma'lum bir massali gazning bosimi o'zgarmas bo'lsa gaz hajmining temperaturasiga nisbati ham o'zgarmas bo'ladi.

$P = const$ $\quad \frac{V}{T} = const.$

$$\frac{V_1}{T_1} = \frac{V_2}{T_2}$$

Izobarik jarayon

$V \sim T$,

• Agar gaz o'zgarmas bosimda isitilsa uning hajmi ortadi.

$$V = V_0(1 + \alpha t)$$

V — $t°C$ dagi hajmi
V_0 — $0°C$ dagi hajmi
α — hajmiy kengayish koeffitsiyenti

$$\alpha = \frac{1}{273\,K}$$

$$\frac{V}{T} = \frac{V_0}{T_0} \qquad \alpha = \frac{1}{T_0}$$

$$\frac{V}{T} = V_0 \cdot \alpha$$

$$\alpha = \frac{V}{T \cdot V_0}$$ Hajmiy kengayish koeffitsiyenti.

$$V = V_0 + V_0 \alpha t$$
$$V - V_0 = V_0 \alpha (T - T_0)$$
$$\Delta V = V_0 \cdot \alpha \cdot \Delta T$$

$$\alpha = \frac{\Delta V}{V_0 \Delta T}$$

• Grafiklarda bosim o'zgarmas bo'lgan chiziq larga izobaralar deyiladi.



$P_2 > P_1$ $P_4 > P_3 = P_1 > P_2$

Sharl qonuni

Sharl qonuni quyidagicha: agar ma'lum bir massali gazning hajmi o'zgarmas bo'lsa gaz bosimining temperaturaga nisbati ham o'zgarmas bo'ladi.

$$V = const \qquad \frac{P}{T} = const.$$

$$\boxed{\frac{P_1}{T_1} = \frac{P_2}{T_2}}$$

Izoxorik jarayon

$P \sim T.$

- Agar gaz o'zgarmas hajmda isitilsa uning posimi ortadi.

$$\boxed{P = P_0(1 + \alpha t)}$$

$$\frac{P}{T} = \frac{P_0}{T_0} \qquad \alpha = \frac{1}{T_0}$$

$$\boxed{\alpha = \frac{P}{P_0 T}}$$

$$\frac{P}{T} = P_0 \cdot \alpha.$$

$$P = P_0 + P_0 \alpha t$$

$$P - P_0 = P_0 \alpha (T - T_0)$$

$$\Delta P = P_0 \alpha \cdot \Delta T.$$

$$\boxed{\alpha = \frac{\Delta P}{P_0 \Delta T}}$$

- Grafiklarda hajm o'zgarmas bo'lgan jarayondagi chiziqlar *izoxoralar* deyiladi.



Grafiklar







1 - izoterma
2 - izobara
3 - izoxora.







Issiqlik o'tkazuvchanlik. **K**onveksiya. **N**urlanish. **I**ssiqlik miqdori. **E**rish. **B**ug'lanish. **Q**aynash. **T**o'yingan bug'. **K**ritik temperatura.

Issiqlik uzatish 2-xil usulda bo'ladi
- ish bajarish
- issiqlik almashish

Ichki energiyani ish bajarmasdan uzatishga issiqlik almashish deyiladi.
Issiqlik almashish 3 turga bo'linadi:

- Konveksiya
- Issiqlik o'tkazuvchanlik
- Nurlanish.

Konveksiya deb notekis isitilgan gaz yoki suyuqlik molekulalarining og'irlik kuchi ta'sirida ko'chishiga aytiladi.

- Issiq havo oqimi yuqoriga, sovuq havo oqimi pastga qarab harakatlanadi.

Issiqlik o'tkazuvchanlik da ichki energiya molekulalarning harakati yordamida uzatiladi (molekulalar ko'chmaydi).

- Metallar da issiqlik o'tkazuvchanlik yuqori bo'ladi. Havo, yog'ochning issiqlik o'tkazuvchanligi past.

Nurlanish deb, ichki energiyani nur chiqarish yo'li bilan uzatishga aytiladi (quyosh, olanga).

Issiqlik almashish jarayonida jism olgan yoki yo'qotgan energiyaga **issiqlik miqdori** deyiladi.

- Jism isiganda issiqlik miqdori oladi, sovuganda beradi.

Q — issiqlik miqdori [J]

$$Q = cm\Delta t = cm(t_2 - t_1)$$

c — solishtirma issiqlik sig'imi $\left[\frac{J}{Kg \cdot K}\right]$

Solishtirma issiqlik sig'imi deb 1 kg modda

ning temperaturasini 1 K ga oshirish uchun kerak bo'lodigan issiqlik miqdoriga aytiladi.

$$c = \frac{Q}{m\Delta T}$$

$C_{suv} = 4200$ J/kg·K

$C_{muz} = 2100$ J/kg·K

Issiqlik sig'imi deb berilgan massali jismning temperaturasini 1 K ga isitish uchun kerak bo'lodigan issiqlik miqdoriga aytiladi.

$$C = cm$$

$$Q = C\Delta T$$

$$C = \frac{Q}{\Delta T}$$

C — issiqlik sig'imi $\left[\frac{J}{K}\right]$.

Qattiq jismlarning suyuqlikka aylanish jarayoniga erish deyiladi.

Jism erishni boshlaydigan temperaturaga erish temperaturasi deyiladi.

Erishga teskari jarayon qotish yoki kristallanish deyiladi.

- Erish temperaturasi qotish temperaturasiga teng. Jism eriyotganda va qotayotganda temperatura o'zgarmaydi.

Muz 0°C da eriydi, suv 0°C da muzlaydi.

$$t_{erish} = t_{qotish}$$

• Jism erigonda oladigon issiqlik miqdori quyidagicha topiladi.

$$Q_{er} = \lambda m$$

$$Q_{qot} = -\lambda m$$

λ – solishtirma erish issiqligi. [J/kg]

Solishtirma erish issiqligi erish temperaturasidagi 1 kg moddani butunlay suyuqlikka aylantirish uchun kerak bo'ladigon issiqlik miqdoriga aytiladi.

$$\lambda = \frac{Q}{m} \qquad \lambda_{muz} = 330 \cdot 10^3 \text{ J/kg}.$$

Masala: –10°C li 3 kg muzni 20°C li suvga aylantirish uchun qancha issiqlik miqdori kerak bo'ladi.

$$Q = Q_{muz.is} + Q_{muz.er} + Q_{suv.is}$$

$$Q_{muz.is} = C_m m_m (0 - t°) = 2100 \cdot 3 \cdot 10 = 63 \cdot 10^3$$

$$Q_{muz.er} = \lambda m_m = 330 \cdot 10^3 \cdot 3 = 990 \cdot 10^3$$

$$Q_{suv.is} = C_s m_m (t - 0) = 4200 \cdot 3 \cdot 20 = 252 \cdot 10^3$$

$$Q = 63 \cdot 10^3 + 990 \cdot 10^3 + 252 \cdot 10^3 = 1305 \cdot 10^3 \text{ J}.$$

• Agar m_1 massali va t_1°C haroratli suvga m_2 massali muz solinsa

A. muz to'liq erishi uchun

$$Q_{suv} = Q_{muz}$$

$$c_1 m_1 t_1 = \lambda \cdot m_2$$

B. muz erishi uchun $t_2 < 0$

$$Q_{suv} = Q_{muz}$$

$$c_1 m_1 t_1 = c_2 m_2 t_2 + \lambda m_2$$

C. $Q_{suv} > Q_{muz}$.

$$c_1 m_1 (t_1 - t) = c_2 m_2 t_2 + \lambda m_2 + c_1 m_2 t$$

D. $Q_{suv} < Q_{muz}$

$$\Delta Q = \frac{m_q}{\lambda}$$

m_q — erimay qolgan muz.

Suyuqlikning bugga aylanish hodisasiga **bug'lanish** deyiladi.

Bug'lanish deb suyuqlikning erkin sirtidagi tezligi (energiyasi) katta molekulalarning suyuqlikni tark etish hodisasiga aytiladi.

Erkin sirt deb suyuqlikning idish devoriga tegmay turgan sirtiga aytiladi.

- Bug'lanish modda turiga, temperaturaga, erkin sirt yuziga va suyuqlik ustidagi haroning holatiga (shamolda tez bug'lanadi) bog'liq.

• Jism bug'langanda oladigan issiqlik miqdori quyidagiga teng:

$$Q_{bug'} = Lm$$

r, L – solishtirma bug'lanish issiqligi [J/kg]

Solishtirma bug'lanish issiqligi deb 1 kg suyuqlikni batamom bug'ga aylantirish uchun kerak bo'ladigan issiqlik miqdoriga aytiladi.

Bug'lanishga teskari jarayon **kondensatsiya** deyiladi.

$$Q_{kon} = -Lm$$

$$r_{bug'} = r_{kond.}$$

$L_{suv} = 2{,}26 \cdot 10^6$ J/kg ≈ $2{,}3 \cdot 10^6$ J/kg.

• 1 kg bug'ning ichki energiyasi o'sha temperaturadagi 1 kg suvning ichki energiyasidan 2,26 MJ ga ortiq.

! Modda isiganda, eriganda, bug'langanda, sublimatsiyada, issiqlik yutadi, ichki energiyasi ortadi, massasi ham ortadi.

Modda soviganda, kristallanganda (qotganda) kondensatsiyada issiqlikni chiqaradi, ichki energiyasi kamayadi, massasi ham kamayadi.

Suyuqlikning butun hajmidan bug' ajralib chiqish hodisasi **qaynash** deyiladi.

Qaynash deb isiyotgan suyuqlikda hosil bo'ladigan tez kattalashadigan pufak ichidagi bosim tashqi bosimga tenglashish hodisasiga aytiladi.

Suyuqlik qaynashni boshlaydigan temperatura **qaynash temperaturasi** deyiladi.

• Suyuqlik qaynayotganda temperatura o'zgarmaydi. Qaynash temperaturasi tashqi bosimga to'g'ri proporsional. Normal atmosfera bosimida suv 100°C da qaynaydi.

• Jismga issiqlik berilganda vaqtga bog'lanish grafigi quyidagicha.



I — qattiq jismning isishi
II — erish
III — suyuqlikning isishi
IV — qaynash
V — bug'ning ishishi
VI — bug'ning sovishi
VII — kondensatsiya
VIII — suyuqlikning sovishi
IX — kristallanish yoki qotish
X — qattiq jismning sovishi

$$t = \frac{m_1 t_1 + m_2 t_2}{m_1 + m_2}$$

Aralashmaning temperaturasi.

• Yoqilgi yonganda ajraladigan issiqlik miqdori quyidagicha topiladi:

$$Q = qm$$

q — solishtirma yonish issiqligi. [J/kg].

$$q = \frac{Q}{m}$$

$q \sim 10^6$ J/kg.

FIK — η (etta)

Foydali ish koeffitsiyenti (FIK) deb, bajarilgan umumiy ishning necha % i, yoki qanday qismi foydali ekanligini harakterlovchi fizik kattalikka aytiladi.

$$\eta = \frac{A_t}{A_{um}} \cdot 100\ \%$$

$$\eta = \frac{Nt}{q \cdot m} \qquad \eta = \frac{cm\Delta T}{qm} \qquad \eta = \frac{cm_s\Delta t}{m_i g h}$$

$$\eta = \frac{Ns}{\vartheta qm} \qquad \eta = \frac{cm\Delta T}{Nt} \qquad \eta = \frac{mgh}{Nt}.$$

O'zining suyuqligi bilan dinamik muvozanatda bo'lgan bug'ga to'yingan bug' deyiladi. To'yinmagan bo'lsa to'yinmagan bug' deyiladi.

Bug'lanish kondensatsiyadan ustun bo'lsa to'yinmagan bug' bo'ladi.

Dinamik muvozanat deb, ma'lum vaqt ichida suyuqlikdan uchib chiqayotgan molekulalar sonining shu vaqt ichida suyuqlikka qaytib tushayotgan molekulalar soniga teng bo'lishiga aytiladi.

- To'yingan bug' bosimi quyidagi formula bilan topiladi.

$$p = nkT$$

$$p = \frac{\rho RT}{M}$$

- To'yingan bug' hajmga bog'liq emas. To'yingan bug' Boyl-Mariot, Sharl qonuniga bo'ysinadi.



AB — to'yingan bug'.

Suyuqlik bilan uning to'yingan bug'ining fizik xossalari bir xil bo'ladigan temperaturaga **kritik temperatura** deyiladi.



$T_k = 375°C$.

- Gazlarda kritik temperatura manfiy bo'lodi. gazlarni suyultirish uchun ularni kritik temperaturagacha sotish kerak keyin siqish kerak

Havoning namligi.

Tarkibida suv bug'i bo'lgan havoga **nam havo** yoki **namlik** deyiladi.

Absolut namlik

- Havodagi suv bug'ining miqdoriga **absolut namlik** deyiladi.
- Havodagi suv bug'ining zichligiga **absolut namlik** deyiladi.
- Berilgan haroratda havodagi suv bug'ining bosimiga **absolut namlik** deyiladi.
- $1\ m^3$ havodagi suv bug'ining massasiga **absolut namlik** deyiladi.

$$\rho_A = \frac{m}{V}$$

ρ_A – absolut namlik $[Kg/m^3]$

Temperaturasi T bo'lgan harodo mavjud bo'lgan suv bug'i parsial bosimining shu temperaturadagi to'yingan bug' bosimiga nisbatining % larda olingan qiymatiga **nisbiy namlik** deyiladi.

φ – nisbiy namlik [%]

$$\varphi = \frac{\rho}{\rho_T} \cdot 100\ \%$$

$$\varphi = \frac{\rho_a}{\rho_T} \cdot 100\ \%$$

Faqat suv bug'ining bosimiga **parsial bosim** deyiladi.

$$\varphi_{or} = \frac{\rho_1 V_1 + \rho_2 V_2}{V_1 + V_2}$$

Aralashmaning nisbiy namligi.

- Normal hayot kechirish uchun nisbiy namlik 40-60 % bo'lishi kerak.
- Nisbiy namlik avgust psixrometr yordamida o'lchanadi.
- Nisbiy namlikni shudring nuqtasi orqali o'lchaydigan asbob **gigrometr** deyiladi.

Shudring nuqtasi deb suv bug'i to'yinadigan temperaturaga aytiladi.

Namlik 100 % bo'ladigan temperaturaga **shudring nuqtasi** deyiladi.

$t_{quruq} > t_{nam}$ $\varphi < 100\%$

$t_q = t_n$ $\varphi = 100\%$. $\varphi \sim \frac{1}{T}$

$$\varphi = \frac{p}{p_t} \cdot 100\% = \frac{p}{nkT} \cdot 100\%$$

Kapillarlik hodisalari. Sirt taranglik.

Suyuqlik sirtidagi molekulalarni suyuqlikning ichiga qarab tortib turuvchi kuchga **sirt taranglik kuchi** deyiladi.

Suyuqlik sirtini chegaralovchi chiziqqa qo'yilgan sirt yuzasi bo'ylab perpendi-

kuluyor yönalgan va yuzani minimal ho-latgacha kichraytirishga intiladigan kuchga sirt taranglik kuchi deyiladi.

$$F = \sigma \cdot \ell$$

F – sirt taranglik kuchi [N]
σ – sirt taranglik koeffitsiyenti [N/m]
ℓ – uzunlik [m]

$$mg = \sigma \ell$$

$$2\sigma \ell = mg$$



$$F = 2\sigma \ell + mg$$

$$\ell = 2\pi r$$

- Sirt taranglik koeffitsiyenti temperatura ortishi bilan suyuqliklarda kamayadi, gazlarda ortadi.
- Vakumda suyuqliklar shar shaklida boladi.
- Suyuqlik sirtidagi molekulalarning potensial energiyasiga sirt energiyasi deyiladi.

$$F = \sigma \cdot \ell$$

$$A = W = U = F \cdot \ell = \sigma \ell \cdot \ell = \sigma S$$

$U = \sigma S$ | $\sigma = \frac{U}{S}$ $[J/m^2]$

$A = \Delta U$
$A = \sigma \cdot \Delta S$.

Shar uchun

$A = \sigma(S_1 - S_1)$ | $A = 2\sigma \Delta S = 2\sigma(S_2 - S_1)$

doira : $S = \pi R^2$
shar : $S = 4\pi R^2$.



1. $F_1 > F_2$ bo'lsa hoʻllaydi
2. $F_1 < F_2$ bo'lsa. hoʻllamaydi

hoʻllaydi hoʻllamaydi.

F_1 – qattiq jism va suyuqlik molekulalari tortishish kuchi
F_2 – suyuqlik molekulalari o'zaro tortishish kuchi.



α – o'tmas (hoʻllamaydi)

α – o'tkir (hoʻllaydi)

Diametri juda kichik boʻlgan naylarga kapilliar naylar yo kapillyarlar deyiladi.

• Agar kapillarni hoʻlovchi suyuqlikka tushirsak suyuqlik kapillyardan yuqoriga koʻtariladi. Hoʻllamaydigan naylarga tushirsak pastga tushadi.



$$h = \frac{2\sigma}{\rho_s g r} \qquad h = \frac{4\sigma}{\rho g d}$$



$$h = \frac{2\sigma}{\rho g \ell}$$

ℓ – plastinka orasidagi masofa.

$$N = \frac{m}{m_1} = \frac{V}{V_1} = \frac{V}{S \cdot h} = \frac{V}{\pi r^2 \cdot \frac{2\sigma}{\rho g \cdot r}}$$

$$N = \frac{V \rho g}{2\pi r \sigma}$$

N – tomchilar soni

$$h = \frac{2\sigma}{\rho g r} \qquad \rho g h = \frac{2\sigma}{r} \qquad P = \rho g h.$$

$$P = \frac{2\sigma}{r}$$

(Lapas formulasi)

Qattiq jismning mexanik xossalari.

$\Delta \ell = \ell - \ell_0$

$\Delta \ell$ – absolyut uzayish.

$$\varepsilon = \frac{\Delta \ell}{\ell_0} \cdot 100\%$$

ε – nisbiy uzayish.

$$F = k \cdot \Delta l$$ Guk qonuni

Mexanik kuchlanish — deb, yuza birligiga ta'sir etuvchi elastiklik kuchiga aytiladi.

$$\sigma = \frac{F}{S}$$

σ — mexanik kuchlanish, mustahkamlik [Pa]

$$F = mg = \rho V g = \rho S l g$$

$$\sigma = \frac{\rho S l g}{S} = \rho l g$$

$$\sigma = \rho l g$$

$$\sigma = (\rho - \rho_s) l g$$

Guk qonuni quyidagicha: kichik deformatsiyalarda mexanik kuchlanish nisbiy uzayishga to'g'ri proporsional.

$$\sigma = E \cdot |\varepsilon|$$

E — elastiklik moduli (Yung moduli) [Pa]
ε — nisbiy uzayish (epsilon)

Yung moduli deb, nisbiy uzayishi 1ga teng bo'lgandagi mexanik kuchlanishga aytiladi.

Yung moduli deb moddani ikki barobar cho'zish uchun kerak bo'ladigan mexanik kuchlanishga aytiladi.

$$E = \frac{\sigma}{|\varepsilon|}$$

$\frac{F}{S} = E|\varepsilon|$ $F = E|\varepsilon| \cdot S.$

$\varepsilon = \frac{\Delta \ell}{\ell_0}$

$$F = \frac{E \cdot S}{\ell_0} \cdot |\Delta \ell|$$

$$K = \frac{ES}{\ell_0}$$

$$F = K \cdot |\Delta \ell|$$

K — bikirlik.

Mexanik kuchlanishning nisbiy uzayishga bog'liqlik grafigiga cho'zilish diagrammasi deyiladi.



$\sigma(\varepsilon)$ — cho'zilish diagrammasi

- Diagrammaning OA qismida Guk qonuni bajariladi.
- Qattiq jismlar isitsak kengayadi, sovutsak torayadi.

Qattiq jismlar 2 turga bo'linadi:
- Kristal jismlar
- Amorf jismlar.

Kristallar deb atom va molekulalari fazoda aniq tartibli vaziyatlar egallab joylashadigan qattiq jismlarga aytiladi.

- Kristallar aniq erish haroratiga ega. Kristallarga — metallar, muz, qor, ...

Amorflar deb atom va molekulalari fazoda aniq tartibli vaziyatlar egallamaydigan qattiq jismlarga aytiladi.

- Past temperaturada amorflar – qattiq jismlardek, Yuqori temperaturada — suyuqlik xossalarini namoyon qiladi.

- Amorf jismlarga — shisha, parafin, rezina, mum, poletilen, ...

Kristallarning fizik xossalari (qattiqligi elektr o'tkazuvchanligi, issiqlik o'tkazuvchanlik...) turli yonalishda turlicha bolsa Anizotropiya deyiladi.

Kristalning fizik xossalari turli yonalishida bir xil bolsa izotropiya deyiladi.

- Amorflar izotropdir. Kristallar (monokristallar) anizotropdir.

Termodinamika Asoslari

Ichki energiya.

Termodinamika — turli jarayonlarda molekulalarning issiqlik tartibsiz harakati tufayli energiyaning birinchi turdan 2-turga aylanishining miqdoriy qonunlarini o'rganadi.

Jismni tashkil qilgan zarrachalarning kinetik va potensial energiyalarining yig'indisiga **ichki energiya** deyiladi.

U — ichki energiya [J]

$$U = W_k + W_p$$

- Gazlarda $W_p = 0$ $U = W_k$
- Suyuqliklarda $W_p \approx W_k$ $U = W_p + W_k$
- Qattiq jismlarda $W_k \approx 0$ $U = W_p$

$$N \cdot W_k = \frac{3}{2} \cdot kT \cdot N$$

$$U = N \cdot W_k$$

$$U = \frac{3}{2} kT \frac{m}{M} \cdot N_A \qquad N = \frac{m}{M} \cdot N_A.$$

$$U = \frac{3}{2} \frac{m}{M} \cdot RT \qquad k \cdot N_A = R$$

$$U = \frac{3}{2} \nu RT \qquad \nu = \frac{m}{M}$$

$$U = \frac{3}{2} PV$$

- Xona, idish ichida ichki energiya o'zgarmaydi.

$$\Delta U = \frac{3}{2} \nu R \Delta T \qquad \Delta U = \frac{3}{2} kN \Delta T$$

$$\Delta U = \frac{3}{2} P \Delta V$$

Ichki energiyaning o'zgarishi.

Termodinamikada ish.

Agar gazning hajmi o'zgarsa bu gaz ish bajaradi:

$$A = P\Delta V$$

$$A = P(V_2 - V_1)$$

$$A_t = -A$$

A_t — tashqi kuchlarning gaz ustida bajargan ishi
A — gazning bajargan ishi

- Gaz kengaysa $V_2 > V_1$

  $A > 0$ $A_T < 0$

  ΔU — kamayadi.

- Gaz siqilsa $V_2 < V_1$

  $A < 0$ $A_T > 0$

  ΔU — ortadi.



$$A = \frac{P_2 + P_1}{2} \cdot (V_2 - V_1)$$

- Izoxorik jarayonda ish bajarilmaydi $A = 0$ $V = const$
- Izobarik jarayonda eng katta ish bajariladi.

$$A = p \cdot \Delta V$$

$$P \Delta V = \nu R \Delta T$$

$$A = \nu R \Delta T$$

$$R = \frac{A}{\nu \Delta T}$$

Universal gaz doimiysi ning fizik ma'nosi quyidagicha: 1 mol ideal gazni izobarik ravishda 1 kelvinga isitishda bajarilgan ishga teng.

$$R = 8{,}31 \quad J/mol \cdot K$$

Termodinamikaning birinchi qonuni.

Termodinamikaning birinchi qonuni issiqlik hodisalariga tadbiq qilingan energiyaning saqlanish qonunidir. Bu qonun quyidagicha:

Sistemaga berilgan issiqlik miqdori sistemaning ichki energiyasini o'zgartirishga va ish bajarishga sarf bo'ladi.

$$Q = \Delta U + A$$

Q — sistemaga berilgan issiqlik miqdori.

$$Q = \Delta U - A \quad \text{(tashqi)}$$

$$-Q = \Delta U + A \quad \text{Issiqlik uzatiladi.}$$

$$-Q = \Delta U - A$$ Issiqlik uzatishda tashqi kuch

- Izotermik jarayon uchun.

$\Delta T = 0$ $\quad \Delta U = \frac{3}{2} \nu R \Delta T = 0$

$$Q = A$$ $$Q_T = P\Delta U$$

- Izoxorik jarayon uchun

$\Delta V = 0$ $\quad A = 0.$

$$Q = \Delta U$$ $$Q_V = \frac{3}{2} \nu R \Delta T$$

$Q = \frac{3}{2} \frac{m}{M} R\Delta T \Rightarrow Q_V = cm\Delta T$

$$C = \frac{3R}{2M}$$ (Mayer formulasi)

- Izobarik jarayon uchun.

$\Delta P = 0$ $$Q_P = \Delta U + A$$

$Q_P = \Delta U + A = \frac{3}{2} P\Delta V + P\Delta V = \frac{5}{2} P\Delta V =$

$= \frac{5}{2} \frac{m}{M} R\Delta T = \frac{5}{2} A.$

$$Q_P = \frac{5}{2} P\Delta V = \frac{5}{2} A$$

$Q_P = Q_V + \frac{m}{M} R\Delta T$ $\quad (P\Delta V = \nu R\Delta T)$

$Q_P = c_P m\Delta T$

$c_P m\Delta T = \frac{3}{2} \frac{m}{M} R\Delta T + \frac{m}{M} R\Delta T$

$c_P = \frac{5R}{2M}$ $$c_P = c_V + \frac{R}{M}$$

• Adiabatik jarayon uchun

$Q = 0$ $\boxed{A = -\Delta U}$ $\boxed{\Delta U = -A}$

Adiabatik jarayon deb sistemaning atrof muhit bilan issiqlik almashmaydigan jarayonga aytiladi.

• Adiabatik jarayon Kalori etr da amalga oshadi.

• Adiabata chizigi izoterma chizigidan kora tikroq va pastroqdan otadi.

$\Delta P_a > \Delta P_T$.

Foydali ish koeffitsiyenti katta bolgan mashinalarga karno mashinalari deyiladi.

• Karno sikli 2 ta adiabata va 2ta izotermadan iborat boladi.



$T_1 = T_2 > T_3 = T_4$

$4 \to 1 \to 2$ da issiqlik berilgan

$2 \to 3 \to 4$ da issiqlik olingan



Termodinamikaning 2-qonuni
(Klauzyus)

Ichki energiya o'z-o'zidan temperaturasi pastroq jismdan temperaturasi yuqori jismga o'ta olmaydi.

Termodinamikaning 2-qonuni tabiatdagi jarayonlarning yo'nalishini ko'rsatadi. Tabiatdagi jarayonlar qaytmasdir. Bu qonun abadiy dvigatel yaratib bo'lmasligini isbotlaydi.

Issiqlik dvigatelining FIK

Issiqlik dvigateli deb issiqlik energiyasini mexanik energiyasiga aylantiruvchi qurilmalarga aytiladi.

Issiqlik dvigatellariga bug' trubinasi, ichki yonuv dvigatellari, reaktiv dvigatellar va boshqalar kiradi.

Ichki yonuv dvigatellari 4 taktda ishlaydi

1. Kiritish (so'rish)
2. Siqish
3. Ish yo'li (ish bajarish)
4. Chiqarish



$$n = \frac{\nu}{2}$$

Porshendagi chaqnash ko'rsoni

• Dvigatel ishlashi uchun T_1 haroratli isitgich, T_2 haroratli sovutkich bo'lishi k-k.

$$A_f = Q_1 - Q_2$$

$$A_{um} = Q_1$$

$$\eta = \frac{Q_1 - Q_2}{Q_1} \cdot 100\%$$

real moshinaning FIK

$$\eta = \frac{A_f}{A_{um}} \cdot 100\%$$

$$\eta = \frac{T_1 - T_2}{T_1} \cdot 100\%$$

Ideal masinaning FIK.

$\eta_{idel} > \eta_{Redl}$

ELEKTRO DINAMIKA

Elektr zaryad. Kulon qonuni.

Barcha jismlar molekulalardan tuzilgan. Molekulalar esa atomlardan tashkil topadi.

• Atom musbat zaryadlangan yadro va manfiy zaryadlangan elektronlardan iborat yadro esa musbat zaryadlangan

proton va zaryadlanmagan neytronlardan iborat.



X^{A}_{q} — A – massa soni
q – zaryadi.

e^{0}_{-1}	elektron	$m_e = 9{,}1 \cdot 10^{-31}$ Kg
p^{1}_{1}	proton	$m_n = m_p = 6{,}67 \cdot 10^{-27}$ Kg
n^{1}_{0}	neytron.	$m_p = 1836 \cdot m_e$

q – zaryad [C], [Kl] (Kulon).

• Agar jism zaryadsiz (neytral) bolsa bu jismdagi elektronlar soni protonlar soniga teng boladi.

1. $q = 0$ bolsa, $N_e = N_p$ boladi (neytral).
2. $q < 0$ bolsa, $N_e > N_p$ (manfiy)
3. $q > 0$ bolsa, $N_e < N_p$ (musbat)

• Agar jism manfiy zaryadlansa, u jism elektron qabul giladi va uning massasi ortadi.
Agar jism elektron yo'qotsa bu jism musbat zaryadlanib, qoladi va uning massasi kamayadi.

Elektron va protonning zaryadi tabiatdagi eng kichik zaryadlar. Shuning uchun ularning zaryadlariga elementar zaryad deyiladi.

$$q_e = e = -1,6 \cdot 10^{-19}\ C$$

$$q_p = 1,6 \cdot 10^{-19}\ C$$

$$e = 1,6 \cdot 10^{-19}\ C$$

$$q = N_e \cdot e$$

Masalan, Agar jism 2ta elektron qabul qilsa bu jismning zaryadi $q = -3,2 \cdot 10^{-19}\ C$ bo'ladi

Agar jism 1ta elektron yo'qotsa, uning zaryadi $q = +1,6 \cdot 10^{-19}\ C$ bo'ladi

Elektr zaryadining saqlanish qonuni

Yopiq sistemadagi barcha zarralar zaryadlarning algebraik yig'indisi o'zgarmasdir

$$\sum q = const$$

Zaryadli zarralar o'zaro ta'sir kuchiga **elektr kuchi** yoki **Kulon kuchi** deyiladi

Kulon kuchini birinchi bo'lib fransiyalik fizik olim Sharl Kulon aniqlagan

Kulon qonuni (Elektrostatikaning asosiy qonuni) quyidagicha

Vakumda joylashgan qo'zg'almas nuqtaviy ikkita zaryadning o'zaro ta'sir kuchi zaryad miqdorlari modullarining ko'paytmasiga to'g'ri proporsional va ular orasidagi masofaning kvadratiga teskari proporsional va zaryadlarni tutashtiruvchi to'g'ri chiziq bo'ylab yo'nalgan.

$$F_{e1} = \frac{1}{4\pi\varepsilon_0} \cdot \frac{|q_1| \cdot |q_2|}{r^2}$$

ε_0 — elektr dəimiyyəsi. $\varepsilon_0 = 8{,}85 \cdot 10^{-12}\ C^2/N \cdot m^2$

$$k = \frac{1}{4\pi\varepsilon_0}$$

k — Kulon koeffitsiyenti $k = 9 \cdot 10^9\ N \cdot m^2/C^2$

$$F_{e1} = k \cdot \frac{|q_1| \cdot |q_2|}{r^2}$$

Xüsusi hallar:

- $F = G \cdot \frac{m^2}{r^2}$ $F = k \cdot \frac{q^2}{r^2}$

$$Gm^2 = kq^2$$

- 

$$\sin\alpha = \frac{x}{2l} \qquad \sin\alpha \approx tg\alpha$$

$$tg\alpha = \frac{F}{mg} \qquad \frac{x}{2l} = \frac{k q_1 q_2}{mgr^2}$$

- 

$$F_{AV} = \frac{k q_1 q_2}{r^2}$$ (Oraya zaryad qoşulsa)

$$F = \frac{k q_1 q_3}{r_2^2}$$

$$F_{KEY} = F + F_{AV}$$

- 

$$q_1' = \frac{q_1 + q_2}{2}$$

$$F = k\frac{|q_1'|^2}{r^2}$$ (Zaryadlanan zərrəcəklər təkrizilib, əvvəlki halatına qaytarılsa)

- Zaryad hamma vaqt jismning sirtida joylashadi.
- Zaryad shar va tekislikda sirt bo'ylab tekis taqsimlanadi, boshqa figuralarda sirt bo'ylab notekis joylashadi (qirralarida ko'proq joylashadi).

Yuza birligiga to'g'ri keladigan zaryadga **zaryadning sirt zichligi** deyiladi.

$$\sigma = \frac{q}{S}$$

σ – zaryadning sirt zichligi $[C/m^2]$

$$q = \sigma \cdot S$$

Elektr maydon. Maydon kuchlanganligi.

Har qanday zaryadli zarra atrofida elektr maydoni mavjud bo'ladi. Elektr maydonining kuch xarakteristikasi elektr maydon kuchlanganligidir.

Elektr maydon kuchlanganligi deb, maydonga kiritilgan birlik musbat zaryadga maydon tomonidan ta'sir etuvchi kuchga aytiladi.

Yo'nalishi kuch yo'nalishi bilan bir xil bo'ladi.

$$\vec{E} = \frac{\vec{F}}{q}$$

E – elektr maydon kuchlanganligi

$\left[\frac{N}{C}\right], \left[\frac{V}{m}\right]$

$$F = Eq$$

• Nuqtaviy zaryadning maydon kuchlanganligi quyidagicha topiladi.

$$E = k \cdot \frac{q}{r^2}$$

$$E = \frac{k \cdot q}{(R+r)^2}$$

r – zaryaddan kõrilayotgan nuqtagacha masofa.

R – radius.



• Elektr maydon kuchlanganligi quyidagicha boʻladi.



Maydon kuchlanganligi miqdor jihatdan ham, yoʻnalish jihatdan ham õzgarmaydigan (jarayon) maydonga **bir jinsli maydon** deyiladi.

$$E = const.$$

$$\vec{F}_1 = \vec{F}_2 = \vec{F}_3 = \ldots.$$

} elektr maydonning bir jinsli bõlish sharti.

Elektr maydon kuch chiziqlari deb, shunday chiziqlarga aytiladiki maydonning kuchlanganlik vektorlari uning har bir nuqtasiga urinmalar boʻylab yõnaladi.





• Agar bir xil isholi zaryadlar oralig'idagi masofada bo'lsa, E=0 bo'lgan nuqta modul jihatdan kichikroq zaryad tomonda bo'ladi.

Elektr maydon kuch chiziqlari. Zaryadlangan shar va tekislik maydonlari.

• Zaryadlangan cheksiz tekislikning maydon kuchlanganligi quyidagiga teng (ixtiyoriy nuqtada)

$$E = \frac{\sigma}{2\varepsilon\varepsilon_0}$$

σ — zaryadlangan sirt zichlik
ε — dielektrik singdiruvchanlik

• Musbat va manfiy zaryadlangan 2 ta parallel tekislik oralig'idagi maydon kuchlanganligi quyidagiga teng.

$$E = \frac{\sigma}{\varepsilon\varepsilon_0}$$





• Zaryadlangan sfera ichida $E=0$, tashqarida $E \neq 0$



$R > r \quad E=0$

• Agar sfera ichida zaryad bolsa ichida $E \neq 0$, tashqarida $E=0$ boladi

$E=0.$

• Agar sfera ichida zaryad bolsa, ichida $q_{um}=0$ boladi

Dielektrik Singdiruvchanlik.

Bir-biridan l masofada joylashgan teng miqdordagi musbat va manfiy zaryadlardan iborat sistemaga dipol deyiladi.



$|q_1| = |-q_2|.$

• Qutubli dielektriklar dipollardan iborat boladi. Bunday dielektriklar elektr maydonga kiritilsa, tashqi maydonni susaytiradi va dipollar orasidagi maydon yonalishida joylashadi. Dielektrik ichida $E \neq 0$ boladi.

Dipollar ikki xil boladi: qutubsiz dipol
qutubli dipol

Qutubsiz depol deb, musbat va manfiy zaryadlarning massa markazlari ustma-ust tushma tushmaydigan dipollarga aytiladi



qutubsiz dipol

qutubli dipol

Qutubli dipollar deb, musbat va manfiy zaryadlarning massa markazlari ustma-ust tushmaydigan dipollarga aytiladi.

Dielektrik singdiruvchanlik deb, zaryadli zarralarning muhitdagi o'zaro ta'sir kuchi vakumdagi o'zaro ta'sir kuchidan necha marta kichikligini ko'rsatuvchi fizik kattalikka aytiladi.

$$\varepsilon = \frac{F_{VAK}}{F_{MUH}}$$

Havo, vakum uchun $\varepsilon = 1$
Suv uchun $\varepsilon = 81$
O'tkazgich uchun $\varepsilon = \infty$
Qutubli dielektrik uchun $\varepsilon = 0$.

- Muhitda kulon qonuni quyidagicha.

$$F = k \cdot \frac{|q_1| \cdot |q_2|}{\varepsilon r^2}$$

Zaryadlangan jismning elektrostatik maydondagi potensial energiya. Potensial.

○ Zaryadlangan zarralar orasidagi o'zaro ta'sir potensial energiyasi quyidagiga teng.

$$W_p = F \cdot r$$

$W_p \cdot eV = W_p \cdot 16 \cdot 10^{-19}$ J (elektron Volt).

$$F = k \cdot \frac{q^2}{\varepsilon r^2}$$

$$W_p = k \cdot \frac{q^2}{\varepsilon r} \qquad W_p = \frac{k|q_1||q_2|}{\varepsilon r}$$

Elektrmaydon potensiali deb birlik musbat zaryadning potensial energiyasiga aytiladi.

φ – elektr maydon potensiali [V]

$$\varphi = \frac{W_p}{q} \qquad 1V = 1\,\frac{J}{C} \qquad \varphi \sim W_p$$

$$\varphi = k \cdot \frac{q}{\varepsilon r}$$ (nuqtaviy zaryadga ning potensiali)



$$\varphi = k \cdot \frac{q}{(R + r)}$$

• Potensial 2 marta kamayadigan nuqtada maydon kuchlanganligi 4 marta kamayadi.

$$E \sim \frac{1}{r^2} \qquad \varphi \sim \frac{1}{r}$$



$$\varphi = k\frac{q}{\varepsilon r} \qquad \varphi \sim \frac{1}{r}$$

$$\boxed{\varphi_1 > \varphi_2 > \varphi_3 > \dots > \varphi_n}$$



$$\varphi = -k\frac{q}{\varepsilon r}$$

$$\boxed{\varphi_1 < \varphi_2 < \varphi_3 < \dots < \varphi_n}$$



Potensiallari bir xil bo'lgan nuqtalarning geometrik o'rniga **ekvipotensial sirt** deyiladi.

- Nuqtaviy zaryadning ekvipotensial sirti sfera (konsentrik aylana) dan iborat.
- Maydon kuchlanganligi (E) hamma vaqt sirtga perpendikulyar bo'lib potensial kamayadigan tomonga qarab yo'naladi.
- Biror jismning potensiali uning barcha nuqtalarida bir xil bo'lib sirtidagi potensialga teng bo'ladi.



$$\boxed{\varphi_1 = \varphi_2 = \varphi_3 = \varphi_n = k\cdot\frac{q}{R}}$$

• Potensial skalyar kattalik bo'lib algebraik jihatdan qo'shiladi.

$$\varphi_{um} = \varphi_1 + \varphi_2 + \dots + \varphi_n$$

$$\varphi_{um} = k\frac{q_1}{r_1} + k\frac{q_2}{r_2} \dots + k\frac{q_n}{r_n}$$

Xususiy hollar:

• q_0 zaryadga ega bo'lgan r radiusli tomchilar qo'shilib R radiusli tomchini hosil qilsa.



$$\varphi_0 = \frac{k q_0}{r} \qquad q = q_0 \cdot n.$$

$$\varphi = \frac{k q}{R} \qquad V = V_0 \cdot n$$

$$\frac{4}{3}\pi R^3 = \frac{4}{3}\pi r^3 \cdot n.$$

$$R = \sqrt[3]{n} \cdot r$$

$$\varphi = k \cdot \frac{n \cdot q_0}{\sqrt[3]{n} \cdot r_0} = k\frac{q_0}{r} \cdot \frac{n}{\sqrt[3]{n}} = \varphi_0 \cdot \sqrt[3]{n^2}$$

$$\frac{\varphi}{\varphi_0} = \sqrt[3]{n^2}$$

• Ikkita zaryadlangan zarralar bir-biriga tekkizilsa yoki ulansa unda umumiy potensial quyidagiga teng bo'ladi



$$\varphi_1 = k\frac{q_1}{R_1} \qquad \varphi_2 = \frac{k q_2}{R_2}$$

$$\varphi_{um} = \frac{k(q_1 + q_2)}{R_1 + R_2}$$

$$\varphi_{um} = \frac{\varphi_1 R_1 + \varphi_2 R_2}{R_1 + R_2}$$

• $\varphi_1 > \varphi_2$ bo'lsa

$k\frac{q_1}{R_1} > k\frac{q_2}{R_2}$ (zaryadlar bir-biriga tekkizilganda)

$q_1 R_2 > q_2 R_1$ (1 dan 2 ga zaryad oqib o'tadi)

• (q) $\varphi = k\frac{q}{R}$ — $\varphi \sim \frac{1}{R}$

(σ) $\varphi = k\frac{\sigma \cdot 4\pi R^2}{R} = k\sigma 4\pi R$ — $\varphi \sim R$

$q = \sigma \cdot S$.

Potensiallar ayirmasiga **kuchlanish** deyiladi.

$$\boxed{U = \varphi_1 - \varphi_2}$$ U – kuchlanish [V]

• Potensiallar va maydon kuchlanganligi orasidagi bog'lanish

$$\boxed{U = Ed}$$

d – masofa
E – maydon kuchlanganligi

• Zaryadni elektr maydonida ko'chirishda bajariladigan ish quyidagiga teng.

$$\boxed{A = q(\varphi_1 - \varphi_2) = q \cdot U = q \cdot E \cdot d}$$

! Bu yerda bajarilgan ish trayektoriyaning shakliga bog'liq emas.

• Zaryadni ekvipotensial ravishda ko'chirilgan ish nolga teng.

$$W_k = \frac{m\vartheta^2}{2}$$

$$W_k = qU$$



$\varphi_1 > \varphi_2$

$A_{1,2} = +q(\varphi_1 - \varphi_2)$ ⊕

$A_{1,2} = -q(\varphi_1 - \varphi_2)$ ⊖

$\Delta W_{1,2}$ ⊕ da W_k kamayadi

$\Delta W_{1,2}$ ⊖ da W_k ortadi.

$$E = \frac{\varphi_1 - \varphi_2}{d} = \frac{U}{d}$$



$1 \to 2$, $3 \to 4$ } da $E = 0$

qolgan hollarda $E \neq 0$

Elektr sig'imi. Kondensatorlar.

O'tkazgichning elektr sig'imi deb o'tkazgich zaryadining potensialiga nisbati bilan o'lchanadigan fizik kattalikka aytiladi.

O'tkazgichning elektr sig'imi deb o'tkazgich potensialini 1 voltga oshirish uchun kerak boladigan zaryadga aytiladi.

C – elektr sig'imi [F] (Farada)

$$C = \frac{q}{\varphi} \qquad 1F = \frac{1C}{1V} \qquad C \sim q$$

- Sig'im jismlarning zaryad to'play olish holatini anglatadi.
- Sig'im zaryadga ham, kuchlanishga ham, tok kuchiga ham bog'liq emas ya'ni ular o'zgarsa ham sig'im o'zgarmaydi.
- O'tkazgichning sigimi jismning geometrik o'rniga, o'lchamiga va jism joylashgan muhitga bog'liq bo'ladi.

$$C_{SHar} = 4\pi\varepsilon_0\varepsilon R$$

$$C = \frac{\varepsilon R}{K}$$

$R_{yer} = 65 \cdot 10^5 \quad \varepsilon = 1 \qquad C = \frac{64 \cdot 10^5}{9 \cdot 10^9} = 0{,}71 \cdot 10^{-3} = 1\,mF$

Bir biridan dielektrik bilan ajratilgan qoplamaqarshi jsborali zaryadlangan ikkita o'tkazgichdan iborat sistemaga **kondensator** deyiladi.

O'tkazgichlarga **qoplamalar** deyiladi. Qoplamalarni shakliga ko'ra kondensatorlar yassi, sferik, silindrik, va boshqa turlarga bo'linadi.

Ishlash tizimiga ko'ra kondensatorlar 3 xil bo'ladi
- O'zgarmas sig'imli kondensatorlar
- O'zgaradigan sigimli kondensatorlar
- Sozlovchi kondensatorlar.

O'zgarmas sig'imli kondensatorlar toki o'tkazmaydi

O'zgaradigan sig'imli kondensatorlar toki o'tkazadi

Sozlovchi kondensatorlar



- Har qanday kondensator sig'imi quyidagi formula orqali topiladi.

$$C = \frac{q}{U}$$

Qoplamlari yassi (tekis) sirtdan iborat kondensatorga **yassi kondensator** deyiladi.



$$C = \frac{\varepsilon \varepsilon_0 S}{d}$$

Yassi kondensator sig'imi.

$$C \sim \frac{\varepsilon S}{d} \qquad \varepsilon_0 = 8{,}85 \cdot 10^{-12}$$

- Tok manbaidan uzilgan kondensator.

$q = const$

$$U = \frac{q}{C} = \frac{1}{C} \sim \frac{d}{\varepsilon S}$$

- Tok manbaiga ulangan kondensator

$U = const$

$$q = U \cdot C \sim C \sim \frac{\varepsilon S}{d}$$

- Yassi kondensator plastinkalari orasiga uchinchi plastinka kiritilsa uning sig'imi o'zgarmaydi

• Zaryadlangan kondensatorning istalgan qutblardan biri yerga ulansa uning potensiali (kuchlanishi) o'zgarmaydi.

Agar ikkita qutbi ham yerga ulansa uning potensiali (kuchlanishi) nolga teng.



$u = const.$



$u = 0.$

Kondensatorlar uch xil usulda ulanadi.

- ketma-ket
- Parallel
- Aralash.

Kondensatorlarni Ketma-ket ulash.



- Ketma-ket ulaganda zaryadlar bir xil bo'ladi.

$$q_1 = q_2 = q_3 = \dots = q_n$$

$$U_{AB} = U_1 + U_2 + U_3 + \dots + U_n$$

$C = \frac{q}{U}$ $U = \frac{q}{C}$ $\boxed{U \sim \frac{1}{C}}$

Agar $C_1 > C_2$ bo'lsa $U_1 < U_2$ bo'ladi

$$\boxed{\frac{1}{C_{k.k}} = \frac{1}{C_1} + \frac{1}{C_2} + \frac{1}{C_3} + \dots + \frac{1}{C_n}}$$

Agar $C_1 = C_2 = C_3 = \dots = C_n = C_0$ bo'lsa, ularni ketma-ket ulasak, umumiy sig'im:

$$\boxed{C_{um} = \frac{C_0}{n}}$$

Parallel ulash.



- Parallel ulashda kuchlanishlar bir xil bo'ladi.

$$\boxed{U_1 = U_2 = U_3 = \dots = U_n}$$

$$\boxed{q_{um} = q_1 + q_2 + q_3 + \dots + q_n}$$

$q = CU$ $q \sim C$

agar $C_1 > C_2$ bo'lsa, $q_1 > q_2$ bo'ladi

$$\boxed{C_{um} = C_1 + C_2 + C_3 + \dots + C_n}$$

Agar $C_1 = C_2 = C_3 = \dots = C_n = C_0$ bo'lsa, ularni ketma-ket emas parallel ulasak, umumiy sig'im:

$$\boxed{C_{um} = n \cdot C_0}$$

$$C_{par} = n^2 \cdot C_{k.k}$$

Parallel va ketma-ket ulash orasidagi bog'lanish.

Misollar:



Bu qism ishlamaydi. Chunki boshi va oxiri bir nuqtada, o'zi-o'ziga ulanib qolgan



Bu sistema parallel ulangan

$C_1 + C_2 + C_3 = C_{um}$



Aralash ulash.



$U_{AB} = U_1 + U_2$

$U_2 = U_3 + U_4$

$q_1 = q_{2,3,4}$ $q_3 = q_4$



$$\frac{1}{C_{3,4}} = \frac{1}{C_3} + \frac{1}{C_4}.$$



$$C_{2,3,4} = C_2 + C_{3,4}$$



$$\frac{1}{C_{um}} = \frac{1}{C_1} + \frac{1}{C_{2,3,4}}$$









Zaryadlangan Kondensator energiyasi.

Kondensator energiyasi uning qoplamalari orasida bo'ladi.

Istalgan kondensatorning potensial energiyasi

$$W_p = \frac{qU}{2}$$

- Tok manbaidan uzilgan bo'lsa $q = const$

$$W_p = \frac{q^2}{2C} \qquad C = \frac{\varepsilon \varepsilon_0 d}{S} \qquad W_p \sim \frac{1}{C} \sim \frac{d}{\varepsilon S}$$

• Tok manbaiga ulangan bo'la, $U = const$

$$W_p = \frac{CU^2}{2} \qquad W_p \sim C \sim \frac{\varepsilon S}{d}$$

• Yakkalangan o'tkazgich uchun

$$W_p = \frac{q\varphi}{2}$$

a) Ulangan bo'lsa $W_p = \frac{C\varphi^2}{2}$

b) Uzilgan bo'lsa $W_p = \frac{q^2}{2C}$

Hajm birligidagi energiyaga energiya zichligi deyiladi.

ω — elektr maydon energiya zichligi.

$$\omega = \frac{W_p}{V} \qquad \left[\frac{J}{m^3}\right]$$

$$\omega = \frac{\varepsilon\varepsilon_0 E^2}{2}$$

$W_p = \frac{CU^2}{2}$ $U = Ed$ $V = S \cdot d$. $C = \frac{\varepsilon\varepsilon_0 \cancel{d} S}{d}$.

$$\omega = \frac{\frac{CU^2}{2}}{S \cdot d} = \frac{CE^2 d^2}{2 \cdot S \cdot d} = \frac{\varepsilon\varepsilon_0 S \cdot E^2 \cancel{d^2}}{\cancel{d} \cdot 2 \cdot S\cancel{d}} = \frac{\varepsilon\varepsilon_0 E^2}{2}.$$

Elektr toki. Tok kuchi.

Zaryadli zarralarning tartibli harakatiga elektr toki deyiladi.

! Metallarda elektr tokini erkin elektronlar tashiydi
Suyuqliklarda elektr tokini musbat va manfiy ionlar tashiydi.
Gazlarda elektr tokini musbat va manfiy ionlar hamda elektronlar tashiydi.
Vakuumda elektr tokini elektronlar tashiydi
Yarim o'tkazgichlarda elektr tokini elektronlar va kovaklar tashiydi
Dielektriklarda tokni hech nima tashimaydi (Dielektriklar tok o'tkazmaydi)

Tok kuchi deb o'tkazgichning ko'ndalang kesim yuzi orqali vaqt birligida o'tadigan zaryad miqdoriga aytiladi.

I – tok kuchi [A]

$$I = \frac{\Delta q}{\Delta t} \qquad I = q'$$

• Agar tok kuchi chiziqli qonunda o'zgarsa o'rtacha tok kuchi quyidagicha topiladi

$$I_{o'rt} = \frac{I + I_0}{2}$$

$$q = I_{or} \cdot t$$

O'zgarmas tok uchun, $I = \frac{q}{t}$ $q = Ne$.

$$I = \frac{eN}{t} \qquad e = 1{,}6 \cdot 10^{-10}\ C$$

$$I = q_0 n S \vartheta$$ n – konsentratsiya $[m^{-3}]$

$$I = e n S \vartheta$$

Masala, $I = 4 + 3t$ → boshlang'ich dsak

$t = 2$

$$q = 4t + \frac{3t^2}{2} = 8 + 3 \cdot 2 = 14C.$$

2-usul. $I = I_0 + xt$

$I_0 = 4 \quad t = 2$

$I = 4 + 3 \cdot 2 = 10$

$$I_{o'rt} = \frac{10+4}{2} = 7$$

$q_{o'rt} = I_{o'r} \cdot t = 7 \cdot 2 = 14C.$

• Elektr tokining tezligi deyilganda elektronning tezligi tushunilmaydi, elektr maydonning tarqalish tezligi tushuniladi.

$$C = 3 \cdot 10^8 \, m/s$$

$\vartheta = 0{,}1 \, mm/s$ – elektronning tartibli tezligi

$$\vartheta \sim \frac{1}{T}.$$

1 Amper shunday o'zgarmas tokning kuchidirki, bu tok vakuumda bir-biridan 1 metr masofada joylashgan 2 ta parallel cheksiz uzun, yuzasi juda kichik bo'lgan to'g'ri o'tkazgichlardan o'tgan ular orasida o'tkazgichning har bir metr uzunligida $2 \cdot 10^{-7} N$ o'zaro ta'sir kuchini vujudga keladi.

• Tok kuchi skalyar kattalik ammo ishorali kattalik yani yo'nalishga ega.

• Tokning yo'nalishi sifatida ⊕ musbatdan ⊖ manfiyga tomon yo'nalish qabul

qilingan. Elektronlarning harakatiga qarama-qarshi.

Elektr tokining 3 xil ta'siri bor:

- Issiqlik ta'siri (tok o'tayotgan o'tkazgich qiziydi)

! Vakumda va o'ta o'tkazgichlardan tok o'tganda issiqlik ta'siri kuzatilmaydi.

- Kimyoviy ta'sir.
Suyuqliklardan va gazlardan tok o'tsa kimyoviy ta'sir kuzatiladi. Metallarda kuzatilmaydi.

- Magnit ta'siri (asosiy ta'sir)
Har qanday muhitdan tok o'tsa magnit ta'siri mavjud.

Tok zichligi deb, o'tkazgichning ko'ndalang kesim yuzi orqali vaqt birligida musbat zaryad harakati yo'nalishida o'tkazgich zaryadiga miqdor jihatdan teng bo'lgan vektor kattalik.

j – tok zichligi $[A/m^2]$.

$$j = \frac{I}{S} \qquad I = \frac{q}{t} \qquad j = \frac{q}{t \cdot S}$$

$$I = q_0 n S v \qquad I = e n S v$$

$$j = q_0 n v \qquad j = e n v$$

Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni. Qarshilik

Zanjirning EYuK bo'lmagan qismi uchun Om qonuni

Tok kuchi kuchlanishga to'g'ri, qarshilikka teskari proporsional.

$$I = \frac{U}{R}$$ R – qarshilik [Ω]

• Qarshilik tok kuchiga ham, kuchlanishga ham, zaryadga bog'liq emas, ular o'zgarsa ham qarshilik o'zgarmaydi.

$R \not\sim U$ $R \not\sim I$

• Qarshilik moddaning turiga va geometrik o'lchamlariga bog'liq.

$$F_{o'r} = \rho_s \cdot \frac{\ell}{S}$$

ρ_s – solishtirma qarshilik [Ωm].

$m = \rho V = \rho S V$.

$\ell = \frac{m}{\rho S}$ $S = \frac{m}{\rho \ell}$.

$$R = \rho_s \frac{m}{\rho S^2} \qquad R = \rho_s \frac{\rho \ell^2}{m}$$

Qarshilikka teskari kattalikka o'tkazuvchanlik deyiladi.

G – o'tkazuvchanlik [sm] (semens)

$$G = \frac{1}{R} \qquad G = \frac{S}{\rho_s \ell}$$

$$1\,sm = \frac{1}{1\Omega}$$

$$j = \frac{I}{S} \qquad j = \frac{U}{RS} = \frac{U}{\rho_s \ell} \qquad U = E\ell$$

$$I = \frac{U}{R} \qquad j = \frac{E\ell}{\rho_s \ell} = \frac{E}{\rho_s}$$

$$R = \rho_s \frac{\ell}{S}$$

$$E = j\rho_s$$ Om qonuni differensial shaklı

- Agar ketma-ket ulansa $I = const$

$$j = \frac{I}{S} \qquad j \sim \frac{1}{S}$$

- Agar parrallel ulansa $U = const$

$$j = \frac{U}{S\ell} \qquad j \sim \frac{1}{\ell} \qquad j \neq S.$$

Eleketr zanjirlar O'tkazgichlarni ketma-ket va parallel ulash.

Elektr zanjirning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi.

- tok manbai (galvanik element, akkumulator batareyasi va generator)



- Istemolchi



- Uzvchi simlar
- Kalit

- Elektr o'lchov asboblari

ampermetr voltmetr Galvanometr.

O'tkazgichlarni uch xil usulda ulash m-n.

Ketma-ket ulash.



- O'tkazgichlarni ketma-ket ulashda tok kuchi bir xil boladi.

$$I_1 = I_2 = I_3 = \dots = I_n$$

$$U_{AB} = U_1 + U_2 + U_3 + \dots + U_n$$

$$R_{AB} = R_1 + R_2 + R_3 + \dots + R_n$$

- Agar $R_1 > R_2$ bolsa, $U_1 > U_2$ boladi, chunki $U = IR$ $U \sim R$.

- Agar $R_1 = R_2 = R_3 = \dots = R_n = R_0$ bolsa,

$$R_{KK} = n \cdot R_0$$

Parallel ulash.



- O'tkazgichlarni parallel ulashda kuchlanishlar bir xil boladi.

$$U_1 = U_2 = U_3 = \dots = U_n$$

$$I_{AB} = I_1 + I_2 + I_3 + \dots + I_n$$

$$\frac{1}{R_P} = \frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} + \frac{1}{R_3} + \dots + \frac{1}{R_n}$$

- Agar $R_1 > R_2$ bolsa, $I_1 < I_2$ boladi. chunki $I = \frac{U}{R}$ $I \sim \frac{1}{R}$

- $R_1 = R_2 = R_3 = \dots = R_n = R_0$ bo'lsa.

$$R_p = \frac{R_0}{n}$$

- Bir xil o'tkazgichlarni ketma-ket va parallel ulashdagi bog'lanish.

$$R_{KK} = n^2 R_p$$

Aralash ulash.



$I_① = I_2 + I_3$ $\quad U_{AB} = U_1 + U_2$

$I_3 = I_4$. $\quad U_2 = U_3 + U_4$.

$R_{3,4} = R_3 + R_4$.

$$\frac{1}{R_{2,3,4}} = \frac{1}{R_{3,4}} + \frac{1}{R_2}$$

$R_{AB} = R_1 + R_{2,3,4}$.





Bu qismlar ishlamaydi



$$\frac{R_1}{R_2} = \frac{R_3}{R_4} \qquad R_5 = 0$$

Bu qism ishlamaydi

Iyogan Krixgoff ning birinchi qoidasi

Tugunda uchrashuvchi toklarning algebraik yig'indisi nolga teng bo'ladi. Tugunga keluvchi toklar musbat ishora bilan, Tugundan chiquvchi toklar manfiy ishora bilan olinadi.



$$I_1 + I_2 + I_3 - I_4 - I_5 = 0$$

$$I_2 + I_3 + I_1 = I_4 + I_5.$$

Tok kuchi va Kuchlanishni o'lchash.

Tok kuchini o'lchashda **ampermetr** dan foydalaniladi. Ampermetr elektr zanjiriga ketma-ket ulanadi. Ampermetrni parallel ulash mumkin emas. Chunki ampermetrni qarshiligi juda kichik bo'ladi

$R_A \ll R$

- Ampermetrni sezgirligini oshirish uchun unga parallel ravishda **shunt** ulanadi.

n — sezgirlik, bo'lim qiymati, o'lchash chegarasi

$$R_{SH} = \frac{R_A}{n-1} \qquad n = \frac{I}{I_A}$$

$$R_{SH} = \frac{R_A}{\frac{I}{I_A} - 1} = \frac{R_A I_A}{I - I_A}$$



